

**2025-2026-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

11-SINF

O'QUVCHILARI UCHUN

DAVLAT VA HUQUQ

ASOSLARI

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI

O'TKAZISH BO'YICHA

METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR

**TANLOV
FANLAR**

2025-2026-O‘QUV YILIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 11-SINF O‘QUVCHILAR UCHUN TANLOV FANLAR BLOKIDAGI DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN YAKUNIY NAZORATIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiya umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilarini davlat va huquq asoslari fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 11-sinf o‘quvchilarining davlat va huquq asoslari fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli burug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom.
2. Davlat va huquq asoslari fanidan 8-11-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

O‘quvchilari uchun davlat va huquq asoslari fani bilish darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta topshiriq taqdim etiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun **180 daqiqa** vaqt berilgan. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Konstruktlar	Testlar soni
Davlat va huquq	Shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni aniqlaydi hamda ularni tahlil qiladi. Davlat va huquqning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini anglaydi. Davlat shakllarini turlarga ajratadi va ularning asosiy xususiyatlarini topadi. Huquqiy munosabatlarni tahlil qiladi. Huquqbuzarlik turlarini	3

	tasniflaydi. Javobgarlikka tortishning asoslarini izohlaydi. Voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarini topadi. Turli vaziyatlarda huquq normalarini to'g'ri qo'llaydi.	
Konstitutsiyaviy huquq	Konstitutsiya qoidalarining mazmun-mohiyatini tushunadi va ularni izohlaydi. Konstitutsiyaviy normalarni aniqlab ularni muayyan vaziyatlarga moslashtiradi. Konstitutsiyaning bo'lim va boblariga doir normalarni huquqiy asoslar hamda mantiqiy dalillarga tayangan holda tanlaydi. Davlatda qonun ustuvorligi tamoyilining mazmuni va ahamiyatini huquqiy dalillar bilan asoslaydi. Konstitutsiyaviy huquq normalarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiladi.	3
Oila huquqi	Oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni biladi. Nikohni tuzish va uni tugatishning huquqiy asoslari, sabablari hamda ularning huquqiy oqibatlarini aniqlaydi. Oilada bolaning huquq va majburiyatlarini amaldagi qonunchilik normalari asosida tahlil qiladi. Alimentning turlarini tasniflaydi hamda ularning qo'llanish shartlarini aniqlaydi. Oilaviy-huquqiy munosabatlarga doir turli vaziyatlarda huquq normalaridan to'g'ri foydalanadi.	2
Fuqarolik huquqi	Fuqarolik huquqi normalarining mazmunini hamda ushbu huquq sohasi orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni aniqlaydi. Mulkiy va nomulkiy munosabatlarni huquqiy mezonlar asosida tahlil qiladi. Majburiyat tushunchasi va uning turlarini farqlaydi hamda ularning huquqiy xususiyatlariga baho beradi. Iste'molchi huquqlarini amaldagi qonunchilik talablari asosida baholaydi. Intellektual mulk hamda vorislik huquqiga oid munosabatlarni tahlil qiladi. Turli vaziyatlarda tegishli fuqarolik-huquqiy normalarni asosli qo'llaydi.	2
Xalqaro huquq	Davlatlar, xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatiga oid ma'lumotlarni topadi. Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi va shakllanish jarayonini tarixiy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini aniqlaydi. Xalqaro huquq hamda xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarda huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri ma'lumotlarni tanlaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish hamda fuqarolikni yo'qotishning huquqiy asoslarini amaldagi qonunchilik doirasida tahlil qiladi. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi ishtiroki va	2

	faoliyatini xalqaro-huquqiy mezonlar asosida baholaydi.	
Mehnat huquqi	Mehnat huquqiga oid normativ-huquqiy qoidalarni tushunadi hamda ularning qo'llanish doirasini belgilaydi. Mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish tartibi, shuningdek ish vaqti hamda dam olish vaqti tushunchalarining mazmuni va huquqiy ahamiyatini tahlil qiladi. Aholini ish bilan ta'minlash (ishga joylashtirish) yo'nalishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni aniqlaydi, ularning maqsadi va kutilayotgan natijalarini topadi. Mehnat munosabatlariga oid turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan baholaydi.	2
Ma'muriy huquq	Ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va xususiyatlarini tushunadi. Davlat xizmatlaridan foydalanish tartibi, bosqichlari va huquqiy talablarini biladi hamda amaliy vaziyatlarda qo'llay oladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar va ularga qo'llaniladigan ma'muriy jazolarni farqlaydi. Huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni tahlil qiladi. Turli vaziyatlarga mos ma'muriy-huquqiy normalarni me'yoriy talablarga muvofiq qo'llaydi.	2
Jinoyat huquqi va kriminologiya	Jinoyat huquqi hamda jinoyat-protsessual huquqqa oid asosiy tushunchalarni aniqlaydi, ularning mazmunini tahlil qiladi. Jinoyat tarkibining elementlarini topadi hamda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini huquqiy mezonlar asosida baholaydi. Ishtirokchilik va jazo turlarini tasniflaydi. Zo'ravonliklar va ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qiladi. Sodir etilgan huquqbuzarlikning ichki (subyektiv) va tashqi (obyektiv) tomonlarini aniqlaydi.	2
Ekologiya huquqi	Ekologiya huquqining mohiyati, predmeti va maqsadini tushunadi. Ekologik huquqbuzarliklarni aniqlaydi. Ekologik huquqbuzarliklarni boshqa huquqbuzarliklardan farqli jihatlarini topadi.	1
Huquq sohalari	Hayotiy vaziyatlarni huquqiy jihatdan tahlil qiladi. Sodir etilgan huquqbuzarliklarning ichki (subyektiv) hamda tashqi (obyektiv) tomonlarini aniqlaydi. Huquqbuzarliklarning oqibatlarini me'yoriy asoslar doirasida izohlaydi hamda dalillarga tayangan holda xulosa chiqaradi.	1
Jami		20

IV. Kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
Bilish (B)	Bilish darajasidagi, ya'ni reproduktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'quv materialini qayta ishlamasdan xotirada saqlash va tanish vaziyatlarda qo'llashni talab qiladi. Bu turdagi topshiriqlar qonuniyatlar, xossalari, tushunchalar, atamalarning mohiyati va ularni yodda saqlashni baholaydi.	5
Qo'llash (Q)	Qo'llash darajasidagi, ya'ni produktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'rganilgan qonun va qonuniyatlarni berilgan vaziyatga mos ravishda tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llash va umumlashtirishni talab qiladi.	14
Mulohaza qilish (M)	Mulohaza darajasidagi, ya'ni intellektual topshiriqlar, o'quvchidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni ishlatib umumlashtirish va xulosa chiqarish talab qilinadi.	1

V. Topshiriq turlari bo'yicha taqsimoti

TOPSHIRIQ TURI	IZOHI	TOPSHIRIQ SONI
Qisqa javobli ochiq test (O1)	savolga qisqa jumla bilan javob berishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	6 ta
Moslashtirish ochiq testi (O2)	savol mazmuniga mos javoblarni moslashtirishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	2 ta
Ko'p tanlovli yopiq test (Y1)	savol mazmuniga mos bo'lgan javob variantlari ichidan to'g'ri-rilarini topishni talab etadigan yopiq test topshiriqlari	9 ta
Kengaytirilgan javobli ochiq test (O3)	savolga batafsil javob yozishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	3 ta

VI. Baholash mezoni va ballni bahoga aylantirish tartibi

O'quvchilarning yozma ishlari yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida maksimum 100 ball bilan baholanadi. Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Topshiriqlar mazmuni va qiyinlik darajasi asosida turli xil ball bilan baholanadi. Har bir topshiriqning baholash mezoni baholash formatida berilgan. Quyida ballni bahoga konvertatsiya qilish jadvali keltirilgan:

Ballni bahoga aylantirish jadvali

Ball (%)	Baho	Izohi
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a'lo”

VII. Baholash shakli

O'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bosqichi, baholanadigan mazmun soha, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari quyidagi jadvalda berilgan:

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
1-bosqich				
1.	Davlat va huquq	Y1	Q	4 ball
2.		Y1	Q	4 ball
3.	Konstitutsiyaviy huquq	O1	Q	4 ball
4.		O2	Q	4 ball
5.	Oila huquqi	O1	B	4 ball
6.		Y1	Q	4 ball
7.	Fuqarolik huquqi	O1	B	4 ball
8.		O2	Q	4 ball
9.	Xalqaro huquq	O1	B	4 ball
10.		Y1	Q	4 ball

11.	Mehnat huquqi	Y1	Q	4 ball
12.		Y1	Q	4 ball
13.	Ma'muriy huquq	O1	B	4 ball
14.		Y1	Q	4 ball
15.	Jinoyat huquqi va kriminologiya	Y1	Q	4 ball
16.		Y1	Q	4 ball
17.	Ekologiya huquqi	O1	B	4 ball
2-bosqich				
18.	Davlat va huquq	O3	Q	10 ball
19.	Konstitutsiyaviy huquq	O3	Q	10 ball
20.	Huquq sohalari	O3	M	12 ball
Jami		100 ball		

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari 8-sinf darsligi. O.Karimova, N.Ismatova, Sh.Sariqov, O.Amanova. “Huquq va jamiyat”, Toshkent – 2019.
3. Konstitutsiyaviy huquq asoslari 9-sinf darsligi. G.M.Tansikbayeva, V.A.Kostetskiy. “Sharq”, Toshkent – 2019.
4. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. X.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta’lim markazi, Toshkent – 2023.
5. Davlat va huquq 11-sinf darsligi. A. Sodikov, N.Ismatova, J.Bobojonov. Respublika ta’lim markazi, Toshkent – 2025.

Izoh: *Davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha topshiriqlar normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi (O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz. sayti).*

1-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Quyida davlat tushunchasiga oid tasniflar keltirilgan. Ortiqcha ikkitasini toping.

1) murakkab ijtimoiy tuzilma; 2) davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradi; 3) majbur qilish kuchiga ega; 4) o'z fuqarolari, shuningdek, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladi; 5) odamlarning ijtimoiy qonunlari ustuvor bo'lgan, muayyan shakllangan mushtarak birligi; 6) mustaqil siyosiy tashkilot.

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) Quyida davlatning ichki funksiyasi turlari keltirilgan. Ortiqcha ikkitasini toping.

1) fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash; 2) barcha mulkchilik shakllaridagi mulkni himoyalash; 3) mamlakatning iqtisodiy sohadagi rivojlanishini ta'minlash; 4) tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash; 5) aholining ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy sohani rivojlantirish; 6) xalqaro iqtisodiy faoliyat; 7) fuqarolarning madaniy-ma'rifiy barkamollikka erishishlari uchun sharoit yaratish.

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Quyida davlatning monarxiya boshqaruv shakli belgilari keltirilgan. Ortiqcha ikkitasini toping.

1) hokimiyat muqaddas va ilohiy deb e'lon qilinadi; 2) o'z faoliyatida mustaqil; 3) hokimiyat vakolatlari taqsimlanadi; 4) hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mavjud; 5) hokimiyat oliy idoralarining o'z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qiladi.

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Quyidagilardan respublika shaklidagi boshqaruvga ega bo'lgan davlatning asosiy belgilarini toping.

1) hokimiyat oliy idoralarining o'z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi; 2) o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas; 3) hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mavjud; 4) odil sudlovni amalga oshiruvchi idora bo'lgan sudlar obro'yining ortishi; 5) umrbod boshqaruv; 6) o'z faoliyatida mustaqil.

Javob:									
Ball:									

5.(Q-4 ball) Quyida demokratik tartibot belgilari keltirilgan bo‘lib, ularning ikkitasidan tashqari barchasi demokratik tartibot belgilariga kiradi. Ortiqchasini toping.

1) davlat boshqaruvi ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili asosida amalga oshiriladi; 2) inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari e’tirof qilinadi; 3) o‘zgacha fikrlarga qarshi kurashiladi; 4) ijtimoiy-siyosiy birlashmalar ko‘p bo‘ladi; 5) hokimiyat vakolatlarining bo‘linadi; 6) muxolifat bartaraf etiladi.

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) Quyidagilardan etatik davlatga xos bo‘lgan ta’riflarni toping.

1) davlat va fuqaroning bir-birlari oldida o‘zaro mas’uliyati bo‘ladi; 2) qonun o‘rnini ko‘pincha qat’iy buyruq va farmoyishlar egallaydi; 3) hokimiyat vakolatlari taqsimlanadi; 4) davlat organlari va mansabdor shaxslariga haddan tashqari ko‘p vakolatlar beriladi; 5) yuqori darajadagi huquqiy madaniyat namoyon bo‘ladi.

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) Quyida unitar davlatning belgilari keltirilgan. Ortiqcha ikkitasini toping.

1) subyektlari o‘z ma’muriy-hududiy bo‘linmalariga ega; 2) yagona fuqarolikka ega; 3) yagona qonunchilik mavjud; 4) bir nechta davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘lishi; 5) barcha ma’muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosatining joriy qilinishi.

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) Quyida davlatlarning tuzilish shakliga ko‘ra belgilari keltirilgan. Ulardan federativ davlatning belgilarini aniqlang.

1) subyektlarining har biri alohida o‘z konstitutsiyasi, o‘zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo‘ladi; 2) muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashadilar; 3) uning hududi subyektlar hududi yig‘indisidan tashkil topadi; 4) mustahkam bo‘lmagan tuzilma; 5) barcha ma’muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosatining joriy qilinadi.

Javob:									
Ball:									

9.(Q-4 ball) Quyida qonun osti hujjatlari keltirilgan bo‘lib, ulardan ortiqcha ikkitasini toping.

1) Jinoyat kodeksi; 2) Prezident farmonlari; 3) hukumat qarorlari; 4) konstitutsiyaviy qonun; 5) ijroiya organlarning normativ hujjatlari; 6) Vazirliklarning buyruqlari.

Javob:									
Ball:									

10. (Q- 4 ball) Quyida fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari keltirilgan. Ulardan ikkita noto'g'risini toping.

1) adolatli huquqiy hokimiyatning mavjudligi; 2) siyosiy erkinliklarning cheklanganligi; 3) fikrlar xilma-xilligini mavjudligi; 4) o'zini-o'zi boshqarish organlarining rivojlanganligi; 5) yagona partiya hukmronligi.

Javob:									
Ball:									

2-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Quyida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalarini **yozma roziligisiz** mustaqil amalga oshirishga haqli bo'lgan harakatlari berilgan. Ikkita ortiqchasini toping.

1) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish; 2) ko'chmas mulkni hadya qilish; 3) mualliflik huquqlarini amalga oshirish; 4) qonunga muvofiq banklarga omonat qo'yish va ularni tasarruf etish; 5) mayda maishiy bitimlarni tuzish; 6) bankdan kredit olish.

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) Quyida 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar **mustaqil** ravishda tuzishga haqli bo'lgan bitimlar berilgan. Ushbu bitimlardagi xatoliklarni toping.

1) mayda maishiy bitimlar; 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar; 3) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish bo'yicha tuzilgan bitimlar; 4) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar; 5) qonunga muvofiq banklarga omonat qo'yish va ularni tasarruf etish uchun tuzilgan bitimlar.

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Quyida berilgan jinoyatlardan qaysilariga 14 yoshdan boshlab javobgarlik belgilanmagan.

1) qasddan odam o'ldirish; 2) qasddan badanga og'ir shikast yetkazish; 3) odam o'g'irlash; 4) firibgarlik; 5) tovlamachilik; 6) ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish.

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Quyida o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadigan jazo turlari berilgan. Ushbu jazolardagi xatoliklarni toping.

1) jarima; 2) majburiy jamoat ishlari; 3) muayyan huquqdan mahrum qilish; 4) axloq tuzatish ishlari; 5) ozodlikni cheklash; 6) uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish; 7) ozodlikdan mahrum qilish.

Javob:									
Ball:									

5. (Q-4 ball) Quyida oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlariga taalluqli ma’lumotlar keltirilgan. Ulardan ikkita xatolikni toping.

1) har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish huquqiga ega; 2) bolaning huquqi va qonuniy manfaatlari uning ota-onasi, ota-onasi yo‘q bo‘lsa, ota-onasining o‘rnini bosuvchilar, vasiylik va homiylik idoralari tomonidan amalga oshiradi; 3) bolaning ismi va familiyasi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola 18 yoshga to‘lgunicha bola manfaatlarini e’tiborga olgan holda o‘zgartirilishi mumkin; 4) bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota-ismi – otasining ismiga ko‘ra beriladi; 5) ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega.

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) Quyida oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlariga taalluqli ma’lumotlar keltirilgan. Ulardan ikkita xatolikni toping.

1) o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega; 2) 14 yoshga to‘lgan bolaning ismi yoki familiyasini o‘zgartirish faqat uning roziligi bilan amalga oshiriladi; 3) bola o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega; 4) voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi; 5) bolaga ism faqat onaning talabiga binoan, ota-ismi – otasining ismiga ko‘ra beriladi.

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) Quyida mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari berilgan. Ulardan ikkita xatolikni toping.

1) mehnat qilish huquqi o‘n to‘rt yosh deb belgilangan; 2) mehnat qonunchiligiga ko‘ra ish vaqti 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarga haftasiga 36 soat; 3) 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun ish vaqti haftasiga 24 soat; 4) 18 yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo‘ladilar; 5) 18 yoshga to‘lmagan shaxslarga 21 kalendar kunlik yillik uzaytirilgan ta’til beriladi.

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) Quyida mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari berilgan. Ulardan ikkita xatolikni toping.

1) o‘n besh yoshga to‘lgan bolalar ota-onasidan birining yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinadi; 2) mehnat qonunchiligiga ko‘ra ish vaqti 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarga haftasiga 40 soat qilib belgilangan; 3) 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun ish vaqti haftasiga 24 soat qilib belgilangan; 4) voyaga yetmaganlar tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga faqat ikki hissa haq to‘lash sharti bilan jalb qilinishlari lozim; 5) 18 yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo‘ladilar.

Javob:									
Ball:									

9. (Q-4 ball) Quyida jinoyat qilgunga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsning jinoyati haqidagi ishlar bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar berilgan. Ortiqcha ikkitasini toping.

1) ayblanuvchining aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oyi, kuni); 2) uning shaxsiga xos xususiyatlar va salomatligi holati; 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari; 4) do‘stlari bilan shaxsiy munosabatlari; 5) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi; 6) yaqin qarindoshlari haqida ma’lumotlar.

Javob:									
Ball:									

10. (Q-4 ball) Quyida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishga doir qoidalar berilgan. Ulardan ikkita xatolikni toping.

1) voyaga yetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning yoki vasiylik va homiylik organi vakilining qatnashishi shart; 2) voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiy vaqt sakkiz soatdan oshmasligi kerak; 3) voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishda himoyachi ishtirok etishi shart; 4) voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qo‘llanilgani to‘g‘risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo‘lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi; 5) voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etishi sud tomonidan o‘g‘irlashtiruvchi holat deb topiladi.

Javob:									
Ball:									

3-savollar bazasi

1.(Q-4 ball) Ijtimoiy tarmoqlarda A.ning ruxsatisiz shaxsiy hayoti va oilaviy munosabatlariga oid ma'lumotlar va suratlar hamkasbi tomonidan tarqatildi. Natijada A.ning obro'yiga putur yetdi.

Bu vaziyatda A. ning qanday konstitutsiyaviy huquq va erkinligiga ziyon yetkazilganligini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) siyosiy huquqlari
- 4) madaniy huquqlari

Javob: _____

2.(Q-4 ball) Fuqaro R. qonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida yashab kelmoqda. U ish faoliyati sababli boshqa viloyatga ko'chib o'tmoqchi, biroq mahalliy organlar hech qanday qonuniy asoslarsiz bunga to'sqinlik qilmoqda.

Bu vaziyatda fuqaro R.ning buzilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinligini aniqlang.

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy huquqi
- 2) siyosiy huquqi
- 3) mehnat qilish huquqi
- 4) shaxsiy huquqi

Javob: _____

3.(Q- 4 ball) Tog'li hududda yashovchi fuqaro F. internet tarmog'idan foydalana olmagan sababli onlayn ta'lim va davlat xizmatlaridan foydalanishda qiyinchilikka duch keldi.

Bu vaziyatda fuqaro F. ning qanday konstitutsiyaviy huquq va erkinligiga ziyon yetganini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqi
- 2) iqtisodiy huquqi
- 3) siyosiy huquqi
- 4) madaniy huquqi

Javob: _____

4.(Q- 4 ball) Fuqaro B. davlat organida bo'sh ish o'rni uchun hujjat topshirdi. U barcha talab va mezonlarga javob bergan bo'lsa-da, uning arizasi ijtimoiy kelib chiqishi sababli qabul qilinmadi.

Ushbu vaziyatda B. ning qanday konstitutsiyaviy huquqi buzilgan?

- 1) shaxsiy huquqi
- 2) siyosiy huquqi
- 3) iqtisodiy huquqi
- 4) madaniy huquqi

Javob: _____

5.(Q- 4 ball) Obod makon mahallasida yashovchi fuqarolar ichimlik suvi ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal etish maqsadida mahalla fuqarolar yig'iniga birgalikda yozma murojaat yo'lladi. Biroq mahalla raisi bu masala uning vakolatiga kirmasligini vaj qilib murojaatni qabul qilishdan bosh tortdi.

Ushbu vaziyatda fuqarolarning qanday konstitutsiyaviy huquqlariga ziyon yetkazilganligini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) siyosiy huquqlari
- 4) madaniy huquqlari

Javob: _____

6.(Q- 4 ball) Fuqaro A. davlat organining rasmiy veb-sayti orqali elektron ariza yubordi. Belgilangan muddat ichida hech qanday javob berilmadi.

Ushbu vaziyatda fuqaro A.ning qanday konstitutsiyaviy huquqi buzilgan?

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) siyosiy huquqlari
- 4) madaniy huquqlari

Javob: _____

7.(Q-4 ball) Bir guruh talabalar universitet rektoriga ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha taklif bilan murojaat qilishdi. Rahbariyat esa uni shikoyat sifatida baholab, e'tiborsiz qoldirdi.

Ushbu vaziyatda talabalarning qanday konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) siyosiy huquqlari
- 4) ta'lim olish huquqlari

Javob: _____

8.(Q-4 ball) Fuqaro D. o'zining dala hovlisini sotib, mablag'ni bank hisobvarag'iga kiritdi. Biroq bank xodimi mablag'ni boshqa hisobvaraqa o'tkazib yubordi.

Ushbu vaziyatda fuqaro D.ning qanday konstitutsiyaviy huquqi buzilgan?

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) siyosiy huquqlari
- 4) ijtimoiy huquqlari

Javob: _____

9.(Q- 4 ball) Fuqaro B. badiiy asar yaratib, uni ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qildi. Bir guruh shaxslar esa uning asarini noqonuniy tarqatib, tijorat maqsadida ishlatishdi. Ushbu vaziyatda fuqaro B.ning qanday konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) ijtimoiy huquqlari
- 4) madaniy huquqlari

Javob: _____

10.(Q-4 ball) Aholi yashaydigan hududda yangi sanoat korxonasi qurilishi rejalashtirildi. Mahalliy aholi loyiha bo'yicha jamoatchilik muhokamasida ishtirok etib, korxonaning atrof-muhitga salbiy ta'siri haqida fikr bildirdi, shunga qaramay loyiha tasdiqlandi.

Ushbu vaziyatda aholining qanday konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligini aniqlang.

- 1) shaxsiy huquqlari
- 2) iqtisodiy huquqlari
- 3) ijtimoiy huquqlari
- 4) ekologik huquqlari

Javob: _____

4-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Birinchi ustunda berilgan huquqlar bilan ikkinchi ustundagi huquqlarni turkumiga qarab moslashtiring. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi;	a) yashash huquqi;
2) mehnat qilish huquqi.	b) insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
	c) davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilik;
	d) kasbiy tayyorgarligini oshirish;
	e) yuridik yordam olish huquqi;
	f) ishsizlikdan himoya qilinish.

Javob:

1		2	
Ball:			

2. (Q-4 ball) Birinchi ustunda berilgan huquqlar bilan ikkinchi ustundagi huquqlarni turkumiga qarab moslashtiring. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;	a) jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish;
2) siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish.	b) aybsizlik prezumpsiyasi;
	c) axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi
	d) jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etish;
	e) mehnat qilish huquqi;
	f) uy-joyli bo'lish huquqi.

Javob:

1	2
Ball:	

3.(Q-4 ball) Birinchi ustunda berilgan har bir huquqlarga ikkinchi ustundan mos keluvchi vaziyatlarni tanlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) shaxsiy huquq va erkinliklar;	a) fuqaro prokuratura organiga shikoyat bilan murojaat qildi;
2) siyosiy huquqlar.	b) fuqaro partiyaga a'zo bo'ldi;
	c) xodimlar ixtiyoriy tibbiy ko'rikdan o'tishdi;
	d) ayblanuvchi tarjimon yordamidan foydalandi;
	e) fuqaro pullarini bankka foiz evaziga omonat qo'ydi;
	f) mahkum afv etish to'g'risida iltimosnoma yozdi.

Javob:

1	2
Ball:	

4.(Q-4 ball) Birinchi ustunda keltirilgan har bir huquqqa mos keluvchi ikkinchi ustundagi vaziyatlarni tanlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) shaxsiy huquq va erkinliklarimiz;	a) men mol-mulk solig'ini uch kun ichida to'lash haqida ogohlantirish xatini oldim;
2) Konstitutsiyaviy burchimiz.	b) men tergov jarayonida sukut saqlash huquqidan foydalandim;
	c) singlim mehnat ta'tilida davolanish uchun shifoxonaga yotdi;
	d) men vijdon erkinligiga egaman;
	e) onam Ichan qal'a muzeyiga borganida u yerdagi narsalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ldi.

Javob:

1		2	
Ball:			

5.(Q-4 ball) Birinchi ustunda berilgan har bir huquqlarga ikkinchi ustundan mos keluvchi vaziyatlarni tanlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarimiz;	a) bu yil men nafaqaga chiqaman; b) aholi uchun bepul tibbiy ko'riklar tashkil etildi; c) harbiy xizmatni o'tashga jo'nab ketyapman; d) kasaba uyushma tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda barcha xodimlar ishtirok etdi;
2) Konstitutsiyaviy burchimiz.	e) men sudda advokat himoyasidan foydalandim; f) mahalla aholisi chiqindilarni belgilangan joyga tashlaydi.

Javob:

1		2	
Ball:			

6. (Q- 4 ball) Oliy Majlis palatalarining mutlaq vakolatlarni aniqlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati;	a) chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalar rahbarlarining o'z faoliyati masalalari bo'yicha hisobotlarini eshitish; b) bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash; c) davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi.	d) Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga nomzod yuzasidan maslahatlashuvlar o'tkazish; e) Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha har yilgi ma'ruzasini eshitish.

Javob:

1		2	
Ball:			

7. (Q- 4 ball) Quyidagilardan birinchi ustunga mos qoidalarni ikkinchi ustundan tanlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari;	a) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari rahbarlarini tayinlash va ularni lavozimidan ozod etish;
2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.	b) O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini berish; c) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning tarkibdan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; d) siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etish; e) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish.

Javob:

1	2
Ball:	

8. (Q- 4 ball) Quyidagilardan birinchi ustunga mos qoidalarni ikkinchi ustundan tanlang. Har biriga bir nechta javob to'g'ri keladi.

1) Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari;	a) davlat budjetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
2) Vazirlar Mahkamasining vakolatlari.	b) mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish; c) nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash; d) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish; e) yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash.

Javob:

1	2
Ball:	

9. (Q- 4 ball) Quyidagilardan birinchi ustunga mos qoidalarni ikkinchi ustundan tanlang. Har biriga bir nechta javob to‘g‘ri keladi.

1) Konstitutsiyaviy sud;	a) quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega;
2) Oliy sud.	b) ushbu sudning qarori qat’iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas; c) fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi; d) sudyalari senator bo‘lish huquqiga ega; e) ushbu sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz o‘n yillik muddatga saylanadi.

Javob:

1	2
Ball:	

10.(Q-4 ball) Quyidagilardan birinchi ustunga mos qoidalarni ikkinchi ustundan tanlang. Har biriga bir nechta javob to‘g‘ri keladi.

1) advokatura;	a) yagona markazlashtirilgan tizimiga ega;
2) prokuratura.	b) jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatadi; c) faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi; d) O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; e) mahalliy budjetni shakllantiradi va ijro etadi.

Javob:

1	2
Ball:	

5-savollar bazasi

1. (B-4 ball) Nikoh tushunchasiga to'g'ri berilgan ta'rifni toping.

- 1) erkak va ayolning umumiy ro'zg'or ostida birga yashashi
- 2) erkak va ayolning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladigan, o'zaro hurmat, muhabbat va ishonchga asoslangan ixtiyoriy kelishuvi
- 3) nikoh ikki yoshning o'n sakkiz yoshga to'lishi bilan o'z roziligi va teng huquqliligi asosida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladigan ittifoqi
- 4) erkak va ayolning o'zaro qarindoshlik rishtalarini bog'lash uchun tuzilgan bitimi

Javob: _____

2. (B-4 ball) Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsadini aniqlang.

- 1) sog'lom oilani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, kam qonlik bilan bog'liq va nogiron bolalar tug'ilishining oldini olish
- 2) nikohlanuvchilarning ruhiy holatiga oid bo'lgan ma'lumotlarni hamda yoshligidan qanday kasallik bilan og'rigan holatini aniqlash
- 3) sog'lom oilani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, irsiyat bilan bog'liq va tug'ma kasalliklarga chalingan bolalar tug'ilishining oldini olish
- 4) nikohlanuvchilarning sog'lig'iga oid bo'lgan ma'lumotlarni hamda ijtimoiy holatini aniqlash

Javob: _____

3.(B-4 ball) Nikohlanuvchilarga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beradigan organni aniqlang.

- 1) sog'liqni saqlash vazirligi
- 2) tuman sog'liqni saqlash bo'linmalari
- 3) davlat xizmatlari agentligi
- 4) FHDY organi

Javob: _____

4. (B- 4 ball) Quyidagilardan nikoh tuzishning asosiy shartlaridan biri sifatida to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) nikoh erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi asosida tuzilishi
- 2) nikoh ota-onaning roziligi asosida tuzilishi
- 3) nikoh Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida ariza bergan kundan e'tiboran tuzilishi
- 4) nikoh erkak va ayolning diniy rasm-rusumlardan so'ng tuzilishi

Javob: _____

5.(B-4 ball) Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- 1) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lsa
- 2) loaqal bittasi ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan bo'lsa

3) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa

4) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, farzandlikka olinganlar bo'lsa Javob:

6. (B-4 ball) Quyidagi holatlardan nikoh tugatilishiga oid xatolikni toping.

1) nikoh er-xotindan birining vafoti oqibatida tugatiladi

2) nikoh sud er-xotindan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida tugatiladi

3) FHDY va sud organlarida nikohdan ajratish oqibatida tugatiladi

4) nikoh faqat sud organlarida ajratish oqibatida tugatiladi

Javob: _____

7. (B-4 ball) O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq "Ko'p bolali oila" ta'rifiga mos javobni aniqlang.

1) to'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila

2) besh nafar va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila

3) uch nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila

4) to'rt nafar va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila

Javob: _____

8. (B- 4 ball) FHDY organida nikohdan ajratish asoslari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1) agar er-xotinning bolalari bo'lmasa, er-xotin nikohdan ajrashishga ota-onalari rozi bo'lsa va o'rtada mulkiy nizo bo'lmasa

2) er-xotin ajrashishga o'zaro rozi bo'lsa, yaqin qarindoshlar guvohlik bersa, o'rtada mulkiy va nomulkiy nizo bo'lmasa

3)er-xotinning voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, er-xotinning nikohdan ajrashishiga mahalla fuqarolar yig'inining roziligi bo'lsa va o'rtada mulkiy nizo bo'lmasa

4)agar er-xotinning voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, er-xotin nikohdan ajrashishga o'zaro rozi bo'lsalar va o'rtada mulkiy nizo bo'lmasa

Javob: _____

9. (B-4 ball) Quyidagilardan er-xotinning majburiyatlariga kirmaydigan javobni aniqlang.

1) o'z farzandlarining farovonligi va kelajagi haqida qayg'urish

2) oilaning farovon va mustahkam bo'lishiga harakat qilish

3) mulkiy nizolarni oldini olish uchun nikoh shartnomasini tuzish

4) oiladagi munosabatlarni o'zaro yordam asosida qurish

Javob: _____

10. (B-4 ball) Quyidagilardan aliment turlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

- 1) voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment
- 2) er-xotin (sobiq er-xotin)ning bir-biriga to'laydigan alimenti
- 3) farzandlar tomonidan ota-onalarga beriladigan moddiy ta'minoti
- 4) davlat tomonidan kam ta'minlangan oilalarga beriladigan aliment

Javob: _____

6-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Quyidagi vaziyatda oiladagi qaysi huquq va majburiyatlar buzilmoqda?

Dilshod va Mohira nikohdan o'tgan. Mohira ishlayotganligi sababli uy yumushlarini bir o'zi bajarishga ulgurmayapti. Dilshod esa Mohiraga ishlashni taqiqlamoqchi, chunki u oilani faqat erkak ta'minlashi, xotin esa bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak deb hisoblaydi. Mohira esa bunga rozi emas.	a)erning oila boshlig'i bo'lish huquqi; b) xotinning mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi; c) erning moddiy ta'minlash majburiyati; d) xotinning uy ishlarini bajarish majburiyati; e) er-xotin oiladagi munosabatlarni o'zaro yordam asosida qurish majburiyati;
--	--

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) Quyidagi vaziyatning to'g'ri yechimini tanlang.

Er-xotin o'rtasida uzoq vaqt davomida kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, er farzandlari va turmush o'rtog'idan alohida yashamoqda. Yarashishga qaratilgan choralardan ijobiy natija chiqmagan. Mazkur holat hozirda sud tomonidan ko'rib chiqilmoqda.	a)agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi; b) sud farzandlar borligini inobatga olib, yarashish uchun bir yil muhlat beradi; c) sud er-xotining yarashish uchun olti oy muhlat tayinlab, er-xotinning har birining yashash joyidagi tuman hokimiyati qoshidagi yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun xabardor qiladi; d) sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotining yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlaydi.
--	---

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Quyidagi vaziyatga mos javoblarni tanlang.

Er-xotin Azamat va Dilnoza besh yil davomida nikohda bo'lishgan. Hozirda ular FHDY organi orqali ajrashmoqdalar.	<p>a) faqat ayol nikohdan ajrashishga rozi bo'lsa hamda voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, FHDY organida ajratiladi;</p> <p>b) agar er-xotinning voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, FHDY organida ajratiladi;</p> <p>c) agar er-xotinning o'rtasida mulkiy va shaxsiy nomulkiy nizolar hamda o'n olti yoshgacha farzandlari bo'lmasa, FHDY organida ajratiladi;</p> <p>d) er-xotin nikohdan ajrashishga o'zaro rozi bo'lsalar va o'rtada mulkiy nizo bo'lmasa, nikoh FHDY organida ajratiladi.</p>
--	--

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Quyidagi vaziyatda nikohni tuzishga monelik qiladigan holatlarni tanlang.

Shahriyor va Nilufar nikohdan o'tish maqsadida FHDY organiga ariza topshirishgan. Ariza ko'rib chiqilganda nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar aniqlangan.	<p>a) Shahriyor ilgari qonuniy nikohda bo'lgan va u hali rasmiy ravishda bekor qilinmagan;</p> <p>b) Shahriyor va Nilufar o'rtasida diniy rasm-rusumlarga binoan nikoh o'qitilgan;</p> <p>c) Nilufar og'ir kasal;</p> <p>d) Shahriyor va Nilufar o'gay aka-singil;</p> <p>e) Shahriyorning 8 oylik farzandi bor.</p>
---	--

Javob:									
Ball:									

5.(Q-4 ball) Quyidagi vaziyatga mos javoblarni tanlang.

<p>Er-xotin Azamat va Nodira sudda ajrashish jarayonidan o'tmoqdalar. Ularning besh yoshli o'g'li va ikki yoshli qizi mavjud. Sud o'z vakolati doirasida mazkur ish bo'yicha bir qator masalalarni hal etgan.</p>	<p>a) er-xotin o'rtasidagi shaxsiy moddiy muammolarni; b) voyaga yetmagan bolalar kim bilan yashashi; c) bolalarga ota-ona tomonidan ta'minot berilishi va mulkiy masalalar; d) to'yni o'tkazishga ketgan sarf xarajatlar; e) yaqin qarindoshlarning nikohni bekor qilinishini qabul qilishini.</p>
---	---

Javob:									
Ball:									

6.(Q-4 ball) Quyidagi vaziyatga to'g'ri javobni tanlang.

<p>Jamila va Kamol nikohdan o'tishdan oldin oiladagi mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solmoqchi. Ularga FHDY organida nikoh shartnomasi tuzishni tavsiya etib tartibini tushuntirishdi.</p>	<p>a) nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanadi; b) nikoh shartnomasi nikoh tugatilganda er va xotindan har biriga beriladigan mulk, farzandlarni kimda qolishi aniqlab olinadi; c) nikoh shartnomasi yozma shaklda FHDY organida qayd etiladi; d) er-xotinning o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab oladi.</p>
---	--

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) Quyidagi vaziyat asosida Adham oilada o'zining qaysi majburiyatlarini bajarmayotganini aniqlang.

<p>Adham doimo mehnat faoliyati bilan band bo'lgani sababli oilasiga yetarli darajada g'amxo'rlik ko'rsata olmayapti. Uning farzandlari adabiyotga qiziqish bildiradi, biroq Adham ularga kitob sotib olish uchun mablag' ajratishni istamaydi. Farzandlari tug'ilganida ularga Baxtiyor va Sevinch kabi ezgu ma'noli ismlar qo'ygan. Xotini tomonidan ko'p qavatli turar-joydan hovli uyga ko'chib o'tish taklifi bildirildi, biroq Adham ushbu taklifni rad etdi.</p>	<p>a) oilasiga g'amxo'rlik qilishi; b) ko'chib yurishi; c) o'z farzandlarining farovonligi va kelajagi haqida qayg'urishi; d) er-xotin birgalikda farzandlariga ism qo'yish.</p>
---	---

Javob:									
Ball:									

8.(Q-4 ball) Quyidagi vaziyatning to‘g‘ri yechimini tanlang.

<p>Komil va Sevara 2010-yilda nikohdan o‘tgan. Ularning to‘rt nafar farzandi bor: –2 nafari voyaga yetmagan, –1 nafari 19 yoshda, mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj, –1 nafari 22 yoshda, sog‘lom va mustaqil. 2023-yildan boshlab Komil va Sevara alohida yashamoqdalar, biroq nikoh rasmiy tartibda bekor qilinmagan. Komil farzandlar ta‘minoti uchun yetarli mablag‘ ajratmay kelayotgani bois, Sevara sudga aliment undirish to‘g‘risida da‘vo arizasi bilan murojaat qilgan.</p>	<p>a) nikoh tugatilmagani sabab aliment undirilmaydi; b) voyaga yetmagan ikki bola uchun ish haqining uchdan bir qismi miqdorida aliment undiriladi; c) uch va undan ortiq bola mavjudligi sabab daromadning yarmi undiriladi; d) mehnatga layoqatsiz, voyaga yetgan bola uchun ham ta‘minot belgilanishi mumkin; e) 22 yoshli sog‘lom farzand uchun ham aliment undiriladi.</p>
---	--

Javob:									
Ball:									

9.(Q-4 ball) Quyidagi vaziyatga mos javobni tanlang.

<p>17 yoshli Dilnuraning otasi uni qarindoshi bilan turmush qurishini talab qilmoqda. Dilnura bunga rozi emasligini bildirganiga qaramay, otasi bosim o‘tkazib, to‘yga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Ushbu holat Dilnuraning majburiy nikohdan o‘tishiga olib kelmoqda.</p>	<p>a) nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin; b) nikoh diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilsa huquqiy ahamiyatga ega; c) qizning roziligi bo‘lsa, hech qanday huquqiy oqibat kelib chiqmaydi; d) ota O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasiga ko‘ra, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.</p>
---	--

Javob:									
Ball:									

10.(Q-4 ball) Quyidagi vaziyatda ota aliment undirishga haqlimi?

Aziza turmush o'rtog'i Bahodir bilan oilaviy kelishmovchiliklar tufayli ajrashishga qaror qildi. Farzandlar Bahodir bilan qolganligi uchun Aziza aliment to'lashdan bosh tortdi. Bahodir farzandlar ta'minoti uchun aliment undirish maqsadida ayolini sudga berdi.	a) ha, ota sud orqali aliment undirishi mumkin; b) yo'q, ota farzandlarni o'z ixtiyori bilan olgan, shuning uchun aliment talabi mavjud emas. c) yo'q, faqat alimentni otadan undirish mumkin; d) faqat onaning roziligi bilan ish haqini uchdan bir qismi hisobida aliment undirilishi mumkin; e) ha, ota ikki bola uchun onaning ish haqini uchdan bir qismi hisobida aliment undirishi mumkin.
---	---

Javob:									
Ball:									

7-savollar bazasi

1. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, gap nima haqida ketayotganligini aniqlang. "Insonning muayyan ehtiyojlarini ta'minlaydigan va uning egaligida bo'lishi mumkin bo'lgan barcha moddiy ne'matlar".

- a) resurslar
- b) xizmatlar
- c) ashyo
- d) mulk

Javob: _____

2.(B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, gap nima haqida ketayotganligini aniqlang. "Biror-bir shaxsga egalik huquqi bilan tegishli bo'lgan ashyolar".

- a) resurslar
- b) mol-mulk
- c) moddiy ne'matlar
- d) boylik

Javob: _____

3. (B-4 ball) Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining necha baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi kerakligini aniqlang.

- a) bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan
- b) bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan
- c) bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan
- d) bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravaridan

Javob: _____

4. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifga mos keladigan mulk turini aniqlang:

“Mahalliy davlat organlarining mol-mulki, o‘zining mahalliy budget mablag‘lari, uy-joy, shuningdek maktab, bog‘cha, teatr, kutubxona, kasalxona, poliklinikalar ham shu turga kiradi.”

- a) davlat mulki
- b) xususiy mulk
- c) munitsipal mulk
- d) umumiy mulk

Javob: _____

5. (B-4 ball) Quyida nuqtalar o‘rniga mos keladigan shartnoma turini toping:

“umumfoydali maqsadlarda fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, madaniyat muassasalariga, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga, shuningdek, davlatga va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinadi va uni qabul qilishda biror kimsaning ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi”.

- a) nasiya
- b) xayr-ehson
- c) hadya
- d) meros

Javob: _____

6. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifga mos keladigan shartnoma turini aniqlang:

“Bir taraf ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan ma‘lum bir ishni bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi”.

- a) ijara shartnomasi
- b) pudrat shartnomasi
- c) kredit shartnomasi
- d) lizing shartnomasi

Javob: _____

7.(B-4 ball) Vafot etgan shaxsning mulki uning avlodlariga qanday asosda o‘tadi?

- a) vasiyatnoma va notarial asosda
- b) vasiyatnoma va hadya asosida
- c) vorislik va xayr-ehson asosida
- d) vasiyatnoma va qonuniy asosda

Javob: _____

8.(B-4 ball) Meros huquqi qanday vujudga keladi?

- a) fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilinishi oqibatida
- b) vasiyatnoma qoldiruvchi tomonidan merosxo‘r deb topilishi oqibatida
- c) fuqaro mol-mulkni meros sifatida notarial tartibda rasmiylashtirganda
- d) meros egalari sudga murojaat qilishi oqibatida

Javob: _____

9.(B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, gap kim haqida ketayotganligini aniqlang. "Ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs".

- a) homiy
- b) intellektual shaxs
- c) muallif
- d) ijodkor

Javob: _____

10.(B-4 ball) Qanday tovar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi tomonidan kafolat muddati belgilanishi lozim?

- a) har qanday tovar va xizmatlarga
- b) uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga
- c) faqat oziq-ovqat, dorilar va kundalik iste'mol tovarlariga
- d) elektronika va maishiy texnika mahsulotlariga va xizmatlarga

Javob: _____

8-savollar bazasi

1.(Q-4-ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tahlil qiling va ularni guruhlariga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

M. san'atga qiziqadi va o'zining rassomlik asarlarini tayyorlab, mahalliy galereyaga ko'rsatmoqchi bo'ldi. M. o'z ishlarini sotish orqali pul topishni rejalashtirdi. Galereya rahbari M.ning taklifini qabul qildi. M ko'rgazmadan ancha pul jamg'arib oldi.

A) Subyeki; B) Obyeki.

- 1) M. ismli shaxs; 2) pul; 3) sotib olish jarayoni; 4) o'z asari bilan ishtirok etish;
- 5) galereya rahbari; 6) ota-ona; 7) rassomlik asarlari; 8) pul topishni rejalashtirish.

Javob:

A	B
Ball:	

2. (Q-4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tahlil qiling va ularni guruhlariga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

Jasur shaxsiy foydalanish uchun kompyuter sotib olish maqsadida "TechnoPlus" do'koni bilan shartnoma tuzdi. Shartnomaga ko'ra, do'kon Jasurga belgilangan muddatda va to'liq komplektatsiyada kompyuter yetkazib berishi, shuningdek, unga kafolat taloni va foydalanish bo'yicha yo'riqnomani taqdim etishi lozim edi. Jasurning esa kompyuter uchun to'lovni ikki bosqichda — oldindan to'lov va mahsulotni qabul qilib olgandan so'ng yakuniy to'lovni amalga oshirish majburiyati belgilandi.

A) Subyekti;**B) Obyekti.**

1) Jasur — xaridor; 2) kompyuter; 3) Jasurning mahsulot sifatini tekshirish huquqi; 4) do‘konning kompyuterni belgilangan muddatda, to‘liq komplektatsiyada topshirish majburiyati; 5) pul; 6) do‘konning belgilangan to‘lovni talab qilish huquqi; 7) “TechnoPlus” do‘koni.

Javob:

A		B	
Ball:			

3. (Q- 4-ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tahlil qiling va ularni guruhlariga ajrating. Har biriga bir nechta javob to‘g‘ri kelishi mumkin.

Sardor onlayn do‘kondan mobil telefon xarid qildi. Telefonni qo‘liga olgach, u qurilmaning ekrani ishlamasligini bildi. Sardor darhol do‘kon bilan bog‘lanib, telefonni almashtirib berish yoki pulini qaytarishni talab qildi. Onlayn do‘kon sotuvchisi Sardorning talabini rad etdi.

A) Xaridorning huquqi; B) Sotuvchining majburiyati.

1) yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish; 2) telefon sotib olish; 3) yetkazilgan zararni qoplab berish; 4) xaridorni huquqlarini cheklash; 5) telefonni almashtirib berish yoki pulni qaytarish; 6) sotuvchi va mahsuloni ijtimoiy tarmoqlarda yomonlash; 7) xaridorning shikoyatini rad etish.

Javob:

A		B	
Ball:			

4. (Q-4 ball) Samandar kichik biznes sifatida sport jihozlari sotishni boshladi. U mijozlarga barcha mahsulotlarini “100% sifatli va 3 yil kafolatli” deb reklama qildi. Bir mijoz sotib olgan velotrenajor 1 yil ishlagach, ishdan chiqdi. Samandar mijozga “Siz noto‘g‘ri ishlatgansiz, kafolat muddati o‘tib ketdi” deb ta‘mirlashni rad etdi.

Samandarning yuridik majburiyatlarini (A) va xaridorning subyektiv huquqlarini (B) guruhlariga ajrating. Har biriga bir nechta javob to‘g‘ri kelishi mumkin.

1) “100% sifatli va 3 yil kafolatli” reklamasi;
 2) sifatli mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish;
 3) velotrenajorni ta‘mirlash yoki almashtirishni talab qilish;
 4) velotrenajorni ehtiyotkorlik bilan ishlatish;
 5) velotrenajorni ta‘mirlab berish yoki almashtirish;
 6) sifatli velotrenajor sotib olish.

Javob:

A		B	
Ball:			

5. (Q-4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tahlil qiling va ularni guruhlarga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

Nilufar eski noutbukini Sanjarga sotdi. Ular shartnomani yozma tuzmay, faqat og'zaki kelishishdi. Bir necha hafta o'tib, Sanjar noutbuk buzilganini aniqladi va boshqasiga almashtirib berishni talab qildi. Nilufar esa, noutbukni qaytarib olishdan bosh tortdi.

A) Subyekt; B) Sanjarning subyektiv huquqi.

1) Nilufar; 2) noutbuk sotib olish; 3) Sanjar; 4) but mahsulotni berishi; 5) noutbuk; 6) qaytarib olish yoki almashtirish talab qilish.

Javob:

A		B	
Ball:			

6. (Q- 4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlar obyektlarini tahlil qiling va ularni guruhlarga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

Aziza dugonasining tug'ilgan kuniga sovg'a sifatida shirinlik, shokolad va chiroyli kalendar sotib oldi. Shu bilan birga, u do'kondan sumka ham xarid qildi.

A) iste'mol qilinadigan ashyolar; B) iste'mol qilinmaydigan ashyolar.

1) shirinlik; 2) do'kon; 3) kalendar; 4) sumka; 5) shokolad.

Javob:

A		B	
Ball:			

7. (Q-4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlar obyektlarini tahlil qiling va ularni guruhlarga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin. Dilshod va Nilufar 10 yil birga yashab, kichik qahvaxona ochishdi. Shu bilan birga, ular shahar chekkasidan dala hovli sotib olishdi. Farzandlari sport to'garagiga borganliklari sababli Dilshod o'g'liga sport anjomlari, qiziga esa kitoblar sovg'a qildi.

A) Ko'chmas mulk; B) Ko'char mulk.

1) qahvaxona; 2) qizi va o'g'li; 3) sport anjomlari; 4) kitoblar; 5) dala hovli.

Javob:

A		B	
Ball:			

8. (Q-4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik huquqiy munosabatlar obyektlarini tahlil qiling va ularni jonli va jonsiz ashyolarga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

Sardor o'z oilasi bilan qishloqda yashaydi va baliqchilik bilan shug'ullanadi. Uning bir nechta baliq hovuzlari va quyvon fermasi bor. Shu bilan birga, Sardor ishlarni yuritish

uchun motorli qayiq va omborxonaga qurib oldi. U yaqin orada hovuz maydonini kengaytirib, yanada ko'proq baliq boqishni rejalashtirmoqda.

A) Jonli ashyo; B) Jonsiz ashyo.

1) Sardor; 2) baliqlar; 3) motorli qayiq; 4) omborxonaga; 5) quyonlar.

Javob:

A		B	
Ball:			

9. (Q-4 ball) Vaziyatda berilgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyektlarini tahlil qiling va ularni guruhlariga ajrating. Har biriga bir nechta javob to'g'ri kelishi mumkin.

Samira va Otabek 8 yildan buyon birga yashaydi. Ular birgalikda ishlab, shahar markazidan kvartira sotib olishdi. Shu bilan birga, ular tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun Otabek nomiga kichik tamaddixonani ro'yxatdan o'tkazishdi va ishlatish uchun bir nechta gaz pechi va muzlatkich sotib olishdi.

A) Ko'chmas mulk; B) Ko'char mulk.

1) tadbirkorlik 2) kvartira 3) muzlatkich 4) gaz pechi 5) tamaddixonaga

Javob:

A		B	
Ball:			

10. (Q-4 ball) Jahongir va Sevara 7 yildan beri birga yashashadi. Ular shahar markazidan uy sotib olishdi va oilaviy transport vositasi sifatida mashina xarid qilishdi. Sevara bolalarining xonasini qayta ta'mirlatib, yangi uy jihozlarini sotib oldi. Shu bilan birga, Jahongir o'z biznesini rivojlantirish maqsadida zamonaviy sport anjomlarini xarid qildi.

A) Ko'chmas mulk; B) Ko'char mulk.

1) uy; 2) sport anjomlari; 3) mashina; 4) oila; 5) jihozlar; 6) biznes.

Javob:

A		B	
Ball:			

9-savollar bazasi

1.(B- 4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, nima haqida ekanligini aniqlang.

“_____ tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar, odat normalari hamda umum tan olingan tamoyillar yig'indisi”.

- 1) xalqaro hamjamiyat
- 2) xalqaro huquq
- 3) xalqaro tartib-taomil
- 4) xalqaro qoida

Javob: _____

2. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, nima haqida ekanligini aniqlang.

“_____ -jahonda mavjud davlatlar va ularda yashovchi insonlarning insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatish birligini anglatuvchi tushuncha. U barcha davlatlarning suveren tengligi, hududlarining daxlsizligi kabi xalqaro huquq tamoyillariga asoslanadi. Unutmang, u xalqaro tashkilot emas.”

- 1) xalqaro hamjamiyat
- 2) xalqaro kelishuv
- 3) xalqaro tartib-taomil
- 4) xalqaro odat

Javob: _____

3.(B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, nima haqida ekanligini aniqlang.

“Unda dunyo xaritasi va uni o'rab turgan ikki zaytun novdasi aks etgan. Zaytun novdasi tinchlik ramzidir. Jahon xaritasi esa tashkilot dunyoda tinchlik o'rnatish yo'lida ekanini ifodalaydi”.

- 1) MDH gerbi
- 2) UNICEF belgisi
- 3) UNESCO logotipi
- 4) BMT bayrog'i

Javob: _____

4. (B-4 ball) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga ko'ra, bola qaysi turkumdagi huquqlar asosida o'z fikrlarini erkin ifodalash, din va vijdon erkinligidan, shuningdek, assotsiatsiya va tinch yig'ilish huquqidan foydalanishi mumkin?

- 1) yashash huquqi
- 2) ishtirok etish huquqi
- 3) o'sib-ulg'ayish huquqi
- 4) himoya qilish huquqi

Javob: _____

5. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, gap nima haqida ketayotganligini aniqlang.
“ _____ - u Bosh assambleya hamda Xavfsizlik kengashi tomonidan saylanadigan 15 nafar a'zodan iborat va doimiy faoliyat olib boradi.”

- 1) BMT Vasiylik kengashi
- 2) BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi
- 3) BMT Xalqaro adolat sud
- 4) BMT Kotibiyati

Javob: _____

6. (B-4 ball) Quyidagi ta'rifni o'qing, gap nima haqida ketayotganligini aniqlang.
“ _____ - xalqaro va ijtimoiy guruhlarning, xalqlar, millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o'zaro hamkorlik prinsipi”.

- 1) integratsiya
- 2) deklaratsiya
- 3) demarkatsiya
- 4) internatsionalizm

Javob: _____

7. (B-4 ball) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga ko'ra, bola qaysi turkumdagi huquqlari asosida ta'lim olish, o'ynash hamda tug'ma qobiliyatlarini to'liq namoyon qilish huquqidan foydalanishi mumkin?

- 1) yashash huquqi
- 2) ishtirok etish huquqi
- 3) o'sib-ulg'ayish huquqi
- 4) himoya qilish huquqi

Javob: _____

8. (B-4 ball) 2016-yildan boshlab UNICEF tashkiloti faoliyatining ustuvor yo'nalishi nimaga qaratildi?

- 1) ta'lim olish imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratildi
- 2) qayerda yashashidan qat'i nazar, barcha bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratildi
- 3) ota-onalar va farzandlarga umid hamda quvonch ulashish, bolalarga bag'ishlangan xayriya tadbirlarini o'tkazishga qaratildi
- 4) urush va ocharchilik kuzatilayotgan hududlarda yashayotgan bolalarga non va sut yetkazib berishga qaratildi

Javob: _____

9. (B-4 ball) Aynan ushbu _____ mavjud bo'lgani bois butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tinchlik va xavfsizlikka oid masalalar ushbu beshta davlatning umumiy roziligisiz hal etilmay qoladi. Chiziqcha ostida yashiringan so'zni toping.

- 1) veto huquqi
- 2) xavfsizlik huquqi
- 3) himoyalani sh huquqi
- 4) ishtirok etmaslik huquqi

Javob: _____

10. (B 4 ball) O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik yo‘lida 2001-yildan buyon qaysi tashkilotning teng huquqli a‘zosi?

- 1) Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
- 2) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkiloti
- 3) Shanxay hamkorlik tashkiloti
- 4) Markaziy Osiyo ittifoqi

Javob: _____

10-savollar bazasi

1. (Q- 4 ball) Ikki davlat suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha kelishuv imzoladi. Kelishuvga binoan, suvdan foydalanish me‘yorlari qat’iy belgilangan edi. Biroq tomonlardan biri kelishuv shartlariga zid ravishda suvdan bir tomonlama ko‘proq foydalana boshladi va bu boshqa davlat iqtisodiyotiga zarar yetkazdi. Mazkur vaziyatda qaysi xalqaro huquqiy tamoyillar buzilgan? (2 ta javobni tanlang)

- 1) davlatlarning hududiy daxlsizligi tamoyili
- 2) davlatlar o‘rtasida hamkorlik tamoyili
- 3) xalqaro shartnomalarga sodiqlik tamoyili
- 4) kuch bilan tahdid qilmaslik tamoyili

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) Ikki qo‘shni davlat o‘rtasida yuzaga kelgan qurolli mojaro mintaqaviy va xalqaro tinchlikka jiddiy xavf tug‘dirdi. Mojaroning boshqa davlatlar xavfsizligiga ham salbiy ta‘siri sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizoni bartaraf etish hamda tinchlikni tiklash bo‘yicha choralar ko‘ra boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qaysi organlari ushbu vazifani amalga oshirishini aniqlang. (2 ta javobni tanlang)

- 1) Xavfsizlik Kengashi
- 2) Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash
- 3) Vasiylik Kengashi
- 4) Xalqaro sud

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Bir davlat xalqaro ekologik konvensiyaga qo'shilgan bo'lsa-da, unda belgilangan majburiyatlarni izchil bajarmayapti. Natijada atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar transchegaraviy tus oldi va boshqa davlatlarning manfaatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti mazkur davlatga nisbatan xalqaro huquqiy ta'sir mexanizmlarini ishga solish masalasini ko'rib chiqdi. Ushbu vaziyatda BMT tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan choralarni aniqlang. (2 ta javobni tanlang)

- 1) davlat bilan rasmiy muzokaralar olib borish va majburiyatlarni bajarishga chaqiruvchi rezolyutsiyalar qabul qilish
- 2) Xavfsizlik Kengashi qarori asosida iqtisodiy yoki siyosiy cheklovlar (sanksiyalar) joriy etish
- 3) BMT organlari tomonidan mazkur davlatning ichki ekologik qonunchiligini to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirish
- 4) ekologik majburiyatlar buzilganligi sababli ushbu davlat fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklarini xalqaro darajada vaqtincha cheklash

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida xalqaro shartnoma tuzilgan. Shartnoma kuchga kirganiga qaramay, tomonlardan biri unda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmadi. Natijada tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi va nizoni xalqaro huquq doirasida hal etish masalasi paydo bo'ldi. Ushbu nizoni hal qilish uchun qaysi huquqiy mexanizmlar qo'llanishi mumkin? (2 ta javobni tanlang)

- 1) tomonlar o'rtasida diplomatik muzokaralar va maslahatlashuvlar o'tkazish
- 2) tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish uchun majburiy mediatsiya mexanizmidan foydalanish
- 3) nizo taraflaridan birining milliy sud organlari orqali masalani ko'rib chiqish
- 4) davlatlar o'rtasidagi kelishuv asosida xalqaro arbitraj mexanizmidan foydalanish

Javob:									
Ball:									

5. (Q-4 ball) A. davlat qo'shni davlatga bevosita harbiy hujum uyushtirdi. Bu harakat mintaqaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirdi va boshqa davlatlarning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida xalqaro hamjamiyat birgalikda choralar ko'rishga qaror qildi. Natijada A. davlatiga iqtisodiy va siyosiy sanksiyalar joriy qilindi va u xalqaro hamjamiyat tomonidan yakkalab qo'yildi. Ushbu vaziyatda A. davlatiga sanksiyalar qaysi xalqaro huquqiy tamoyillar asosida qo'llanildi? (2 ta javobni tanlang)

- 1) xalqaro shartnomalarning majburiyligi tamoyili

- 2) kuch ishlatmaslik tamoyili
- 3) diplomatik daxlsizlik
- 4) jamoaviy xavfsizlik qoidasi

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) Dunyodagi qashshoqlik va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari yuzasidan BMT yig'ilishi bo'lib o'tmoqda. Sammitda turli mamlakat delegatlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, oziq-ovqat ta'minoti va ijtimoiy yordam dasturlari bo'yicha tavsiyalar oladi. Ushbu vaziyatda BMTning qaysi organlari faol ishtirok etmoqda? (2 ta javobni tanlang)

- 1) Iqtisodiy va ijtimoiy kengash – global iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni muhokama qiladi
- 2) Xavfsizlik Kengashi – tinchlikni saqlashga doir tavsiyalar beradi
- 3) Bosh Assambleya – barcha a'zo davlatlar vakillari yig'ilib, tavsiyalar ishlab chiqadi
- 4) Xalqaro Sud – faqat iqtisodiy nizolarni hal qiladi
- 5) BMT Bosh kotibi – xalqaro masalalarni monitoring qiladi va tavsiyalar beradi

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) Dunyoda inson huquqlari buzilish holatlari ortib bormoqda. BMT organlari ushbu holatlarni kuzatadi, hisobot tayyorlaydi va tavsiyalar beradi, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga ham e'tibor qaratadi. Ushbu vaziyatda BMTning qaysi organlari faol ishtirok etmoqda? (2 ta javobni tanlang)

- 1) Vasiylik kengashi – muammolarni monitoring qiladi va tavsiyalar beradi
- 2) Inson huquqlari bo'yicha kengash – huquqlarni monitoring qiladi va tavsiyalar beradi
- 3) Bosh Assambleya – faqat moliyaviy nazorat qiladi
- 4) Xalqaro Sud – ekologik masalalarni hal qiladi
- 5) Xavfsizlik Kengashi – global tinchlik va xavfsizlikni ta'minlaydi

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) A. davlat xalqaro ekologik tashkilot bilan atmosfera va suv resurslarini himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnoma imzoladi. Ushbu shartnomaga ko'ra, davlat o'z sanoat korxonalarida zararli chiqindilarni kamaytirishi va chiqindilarni maxsus nazorat tizimi orqali qayta ishlashi kerak edi.

Biroq, davlat sanoat ishlab chiqarishni kamaytirmaslikka qaror qildi va chiqindilar miqdori oshdi. Shu sababli xalqaro ekologik tashkilot davlatga nisbatan jarimalar va boshqa sanksiyalar qo‘llash masalasini ko‘rib chiqdi. Ushbu vaziyatda qaysi xalqaro huquqiy tamoyillar buzilgan? (2 ta javobni tanlang)

- 1) davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili
- 2) atrof-muhitni himoya qilish tamoyili
- 3) xalqaro shartnomalarning majburiyligi tamoyili
- 4) har bir davlatning iqtisodiy mustaqillik tamoyili
- 5) xalqaro inson huquqlarini himoya qilish tamoyili

Javob:									
Ball:									

9.(Q- 4 ball) Bir davlat boshqa davlat bilan xalqaro savdo shartnomasini imzoladi. Shu shartnoma doirasida davlat bir nechta boj va tariflarni o‘zgartirmaslikka va savdo majburiyatlarini bajarishga rozilik bildirdi. Ushbu vaziyatda xalqaro shartnomalar ichki huquqdagi shartnomalardan qaysi jihatlar bilan farq qiladi? (2 ta javobni tanlang)

- 1) tuzish jarayoni nisbatan oson va oddiy bo‘lganligi
- 2) ichki huquq bilan tartibga solinganligi
- 3) tuzish jarayoni nisbatan murakkab va uzoq davom etganligi
- 4) shartlar bajarilmaganda jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligi
- 5) shartlar bajarilmaganda davlatlarning javobgarligi

Javob:									
Ball:									

10. (Q-4 ball) Xalqaro sammitda yangi davlatni BMTga a‘zo qilish masalasi ko‘rib chiqildi. Delegatlar ushbu hududning mustaqil qaror qabul qila olishini, o‘z hududini boshqarish vakolatiga ega ekanligini va xalqaro tan olinishini muhokama qilishdi. Ushbu vaziyatda suveren davlatning qaysi belgilari namoyon bo‘lmoqda? (2 ta javobni tanlang)

- 1) mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish vakolatiga ega bo‘lish
- 2) qonunchilik va ijro etuvchi organlarining mavjudligi
- 3) xalqaro tan olinmaslik, boshqa davlatlar bilan aloqasiz bo‘lish
- 4) mahalliy hududning mavjudligi va chegaralangan hududga egalik
- 5) qonunlar faqat xalqaro sud tomonidan belgilanishi

Javob:									
Ball:									

11-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Mehnat huquqi bilan bog'liq **to'g'ri** berilgan ma'lumotlarni aniqlang:
- 1) mehnat sharoitlarini ta'minlash deganda ish beruvchi va xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratib berishga oid munosabatlar tushuniladi
 - 2) asosiy qonunda Mehnat vazirligi fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishi belgilangan
 - 3) xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik mehnatga oid huquqiy munosabatlarning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi
 - 4) agar shaxs ishsiz qolsa, davlat unga doimiy moddiy yordam ko'rsatadi

Javob:									
Ball:									

- 2.(Q-4 ball) Mehnat huquqi bilan bog'liq **noto'g'ri** berilgan ma'lumotlarni aniqlang:
- 1) davlat ishsiz shaxslarga bir qancha kafolatlarni belgilaydi
 - 2) davlat mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilaydi, ish beruvchilar o'z xodimlariga mazkur summadan kam ish haqi berishlari ham mumkin
 - 3) ishsizlik nafaqasini miqdori turlicha bo'lishi mumkin
 - 4) kasbiy ko'nikmalar markazi fuqarolarni belgilangan to'lov asosida kasb-hunarga o'rgatish va ishga joylashishda yordam berishga ko'maklashadi

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Qanday hollarda mehnat shartnomasi haqiqiy emas deb topilishini aniqlang:
- 1) xodimning holatini qonunchilikka nisbatan yomonlashtirsa
 - 2) kamida ikkita nusxada tuzilgan bo'lsa
 - 3) xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish belgilangan bo'lsa
 - 4) majburiy mehnat belgilansa

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Korxonada mehnat qilayotgan 15 –16 yoshli xodimga oid mehnat qonunchiligidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang:
- 1) ishga joylashayotganda o'qituvchisi tavsiyanoma berishi talab etiladi
 - 2) ish vaqti haftasiga 36 soatdan oshmasligi kerak
 - 3) aravacha va vagonetka yordamida yuk tashishlariga ruxsat etilmaydi
 - 4) ish vaqti haftasiga 24 soatdan oshmasligi kerak
 - 5) ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak

Javob:									
Ball:									

5. (Q-4 ball) Har yilgi mehnat ta'tilini berish bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang:

- 1) qonunchilikka muvofiq noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi
- 2) xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, har yilgi qo'shimcha ta'tili beriladi
- 3) barcha xodimlar, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega
- 4) har yilgi mehnat ta'tili har yilgi asosiy eng kam yoki har yilgi asosiy uzaytirilgan turlariga bo'linadi

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) Quyidagilardan ish joylariga nisbatan qo'yiladigan talablarni aniqlang:

- 1) ish joyi estetik jihatdan xodimning didiga mos bezatilgan bo'lishi shart
- 2) xodimning binodan chiqishi uchun avariya yo'llari va chiqish joylari belgilangan bo'lishi kerak
- 3) ish joyining funksional maqsadiga va mehnat xavfsizligi hamda mehnatni muhofaza qilish talablariga mos bo'lishi kerak
- 4) ish joyida xodim tomonidan shaxsiy buyumlarni saqlash uchun alohida javon bo'lishi kerak

Javob:									
Ball:									

7. (Q- 4 ball) Quyidagilardan ish beruvchining qonuniy huquqlari va qonunga zid talablarini aniqlang:

- 1) xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish
- 2) xodimdan uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilish
- 3) xodimga ish sharoitlari to'g'risida to'liq ma'lumot berish
- 4) xodimlarning mehnat faoliyatini nazorat qilish

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) Mehnat huquqi bilan bog'liq to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang:

- 1) har yilgi mehnat ta'tili vaqti uchun haq to'lashda yakshanba kuni ham inobatga olinadi

- 2) ish haqi qisman saqlangan ta' tilning davomiyligi to'g'risidagi masala taraflarning kelishuviga ko'ra hal etiladi
- 3) xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra har yilgi mehnat ta'tili qismlarga bo'linishi mumkin. Bunda ushbu ta' tilning hech bo'lmaganda bir qismi o'n to'rt kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak
- 4) homilador ayollar va voyaga yetmaganlarni zarurat yuzasidan har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olish mumkin

Javob:									
Ball:									

9. (Q-4 ball) O'zbekiston Respublikasida mehnatga haq to'lashning ikki asosiy shaklini toping.

- 1) mavsumiy – ish haqi yilning ma'lum fasllarida bajarilgan ish hajmiga qarab belgilanishi
- 2) doimiy – xodimga lavozimiga biriktirilgan oylik tarif stavkasi asosida doimiy ravishda ish haqi to'lanishi
- 3) vaqtbay – xodimning bajargan ish miqdoriga qarab haq to'lanishi
- 4) ishbay – xodimga ish haqi ishlagan vaqti (soat, kun, oy) uchun to'lanishi

Javob:									
Ball:									

10. (Q-4 ball) Quyidagilardan davlat mehnat inspektorining vazifalarini aniqlang:

- 1) xodimlarni huquqlari va xavfsizligi ta'minlanayotganini tekshirish
- 2) korxonada xodimlari bilan mehnat shartnomasini tuzish
- 3) ish beruvchilarning mehnat to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilishini nazorat qilish
- 4) xodimlarga qulay mehnat sharoitini yaratib berish

Javob:									
Ball:									

12-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) “Zarafshon tekstil” korxonasida tikuvchi lavozimida ishlovchi D. ismli xodimga ish beruvchi buyurtmalar ko‘payganini asos qilib, uning roziligisiz dam olish kuni 6 soat ishlash majburiyatini yukladi. Qo‘shimcha ish uchun alohida haq to‘lanmasligi aytiladi. D. bu holatga e‘tiroz bildirdi.

Vaziyatni huquqiy jihatdan tahlil qilib, to‘g‘ri xulosalarni aniqlang.

- 1) xodimni dam olish kuni ishga jalb qilish faqat uning roziligi bilan yoki qonunda belgilangan alohida hollarda mumkin
- 2) ish beruvchi ishlab chiqarish ehtiyoji sababli xodimni har qanday vaqtda roziligisiz ishga jalb qilishi mumkin
- 3) dam olish kunidagi ish uchun kamida bir yarim hissa haq yoki qo‘shimcha dam olish kuni berilishi shart
- 4) qo‘shimcha ish uchun haq to‘lanmasligi mehnat qonunchiligiga zid
- 5) xodimning e‘tirozi mehnat intizomini buzish hisoblanadi

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) “Baraka Plast” ishlab chiqarish korxonasida operator lavozimida ishlovchi K. ismli xodimga ish beruvchi ishlab chiqarish rejasini bajarish bahonasida kechki smenada qo‘shimcha ishlashni, ammo qo‘shimcha haq to‘lanmasligini ma‘lum qildi. K. mehnat shartnomasida ish vaqti aniq belgilanganini aytib, bu talabga rozi bo‘lmadi. Vaziyatni huquqiy jihatdan tahlil qilib, K. bilan tuzilgan mehnat shartnomasida qonuniy hisoblanadigan bandlarni aniqlang.

- 1) mehnat shartnomasida K. ning mehnat faoliyatini amalga oshiradigan joyi (korxonada va bo‘lim) ko‘rsatilgan
- 2) mehnat shartnomasida ish beruvchiga K. ni istalgan vaqtda va haq to‘lanmasdan qo‘shimcha ishga jalb qilish huquqi berilgan
- 3) mehnat shartnomasida K. ning ish vaqti hamda dam olish vaqti aniq belgilangan
- 4) mehnat shartnomasida K. ning hashar va ayrim vaqtlarida majburan obodonlashtirishga jalb qilinishi ko‘rsatilgan
- 5) mehnat shartnomasida K. ning korxonada manfaatlari yo‘lida vaqtincha boshqa ishlarni bajarishi mumkinligi, bu ishlar lavozimiga yaqin bo‘lsa, alohida haq to‘lanmasligi belgilangan

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Z. ismli shaxs mehnat shartnomasi asosida “Yangi hayot” firmasida muhandis lavozimida mehnat faoliyatini boshlaydi. Oradan bir necha oy o‘tib, ish beruvchi ish haqini oldindan ogohlantirmasdan kamaytirdi. Z. buni noqonuniy deb hisoblab, mehnat shartnomasiga muvofiq to‘lov talab qildi.

Z. bilan tuzilgan mehnat shartnomasining qaysi bandlari noto'g'ri ekanligini aniqlang.

- 1) mehnat shartnomasida Z. ning muayyan kasb, mutaxassislik bo'yicha ishlashi belgilangan
- 2) mehnat shartnomasida ish beruvchi istagan paytida Z. ning ish haqini o'zgartirishi mumkinligi belgilangan
- 3) mehnat shartnomasida Z. ning ishga kirish sanasi ko'rsatilgan
- 4) mehnat shartnomasida Z. ning mehnatiga haq to'lash shartlari belgilangan
- 5) mehnat shartnomasida ish beruvchining ko'rsatmasi bilan Z.ning bepul ishlab berish majburiyati ko'rsatilgan

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) I. ismli homilador ayol "Nurli kelajak" ishlab chiqarish korxonasida mehnat faoliyatini olib boradi. Ish beruvchi ishlab chiqarish rejasini bajarish zarurligini asos qilib, uni tungi smenada ishlashga jalb qilmoqchi bo'ldi. I. esa mehnat qonunchiligida homilador ayollar uchun alohida kafolatlar mavjudligini aytib, ushbu talabga e'tiroz bildirdi.

Vaziyatga huquqiy baho berib, homilador ayollarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan qonuniy kafolatlarni aniqlang.

- 1) homilador ayollarni tungi ishlarga va ortiqcha ishlarga jalb qilish taqiqlanadi
- 2) ish beruvchi ishlab chiqarish zarurati mavjud bo'lsa, homilador ayolni uning yozma roziligi bilan tungi smenaga jalb qilishi mumkin
- 3) homilador ayol tibbiy xulosaga asosan yengilroq ishga o'tkazilishi va bunda o'rtacha ish haqi saqlanib qolishi kafolatlanadi
- 4) homilador ayol ish beruvchining tashabbusi bilan har qanday holatda ishdan bo'shatilishi mumkin emas
- 5) homilador ayol korxonada manfaatlari yo'lida vaqtincha boshqa qo'shimcha ishlarni bajarishi mumkin, agar bu ishlar sog'lig'iga zarar yetkazmasa

Javob:									
Ball:									

5. (Q-4 ball) 16 yoshli K. ismli xodim "Shirin don" korxonasiga ishga qabul qilindi. Ish beruvchi ishlab chiqarish rejasini vaqtida bajarish uchun barcha xodimlariga qo'shimcha ish yuklamasini belgiladi. Ushbu ro'yxatda voyaga yetmagan K. ham bor edi. U bundan norozi bo'ldi.

Vaziyatga huquqiy baho berib, voyaga yetmagan xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan kafolatlarni aniqlang:

- 1) voyaga yetmagan xodim ish beruvchining tashabbusi bilan har qanday holatda ishdan bo'shatilishi mumkin emas

- 2) ish beruvchi ishlab chiqarish zarurati bo'lsa, voyaga yetmagan xodimni uning yozma roziligi bilan tungi smenaga jalb qilishi mumkin
- 3) voyaga yetmagan xodimga yengilroq ish berish va ish haqi miqdorini saqlab qolish kafolatlanadi
- 4) voyaga yetmagan xodimlarni tungi smenaga va ortiqcha ishga jalb qilish taqiqlanadi
- 5) voyaga yetmagan xodim korxonada manfaatlari yo'lida vaqtincha boshqa ishlarni bajarishi mumkin, agar bu ishlar sog'lig'iga zarar yetkazmasa, alohida haq to'lanmasligi mumkin

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) "Norma Law" korxonasiga 16 yoshli D. ismli shaxs ishga qabul qilindi. Ish beruvchi mehnat shartnomasini tuzishdan oldin, D. ning yashash joyidan ma'lumotnoma va boshqa hujjatlarni talab qildi. Vaziyatga huquqiy baho berib, voyaga yetmagan xodimlardan mehnat shartnomasi tuzilayotganda qonuniy talab etiladigan hujjatlarni aniqlang:

- 1) my.gov.uz portali orqali voyaga yetmagan xodimning turar joyidan ma'lumotnoma
- 2) voyaga yetmagan xodimning sog'lig'i holati to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma
- 3) voyaga yetmagan xodimga o'quv maskanidagi o'qituvchilari tomonidan tavsiyanoma
- 4) voyaga yetmagan xodimning oilaviy sharoiti to'g'risida ma'lumotnoma
- 5) voyaga yetmagan xodimning ishga qabul qilinishiga ota-onasidan yoki vasiylaridan biri tomonidan yozma rozilik

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) "Huquq Line" kompaniyasi ish beruvchisi korxonaga xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qildi. Tanlovdan o'tgan barcha xodimlarga uch oylik sinov muddati belgilandi. Ish beruvchining bu harakatidan ayrim xodimlar norozi bo'lishdi. Mehnat qonunchiligiga muvofiq sinov muddati kimlarga nisbatan qo'llanilmasligini aniqlang.

- 1) o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar
- 2) homiladorlarga va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga
- 3) o'zi bilan bir yil muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar
- 4) ellik besh yoshga to'lgan ayollar va oltmish yoshga to'lgan erkaklar
- 5) yuqori malakaga ega bo'lgan xodimlar
- 6) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) Tikuvchilik korxonasi ish beruvchisi ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash maqsadida ayrim xodimlardan majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishni talab qildi. Bunga javoban bir guruh xodimlar bu talab mehnat qonunchiligiga zid ekanini aytib, kasaba uyushmasiga shikoyat qilishdi. Ish beruvchi qaysi toifadagi xodimlardan majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishni talab qilishga haqli?

- 1) korxonada ishlayotgan faqat ayollar
- 2) kunduzgi ishlar bilan band bo'lgan xodimlar
- 3) umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslar
- 4) tez-tez kasallik varaqasini ochtiradigan xodimlar
- 5) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar

Javob:									
Ball:									

9. (Q-4 ball) 1-oktyabr ustoz va murabbiylar kunida aholiga xizmat ko'rsatish maqsadida ayrim avtobus haydovchilari ishga jalb etildi. Buxgalteriya ta'minoti ularning mehnatiga hech qanday qo'shimcha qo'shmasdan haq yozdi. Ayrim xodimlar bu noto'g'ri ekanligini bildirib, kasaba uyushmasiga shikoyat qilishdi. Mehnat qonunchiligiga muvofiq qanday hollarda ish haqqi ikki hissa miqdorida to'lanishini aniqlang.

- 1) kasallik davridagi ishlar
- 2) tungi ishlar
- 3) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlar
- 4) ta'til davridagi ishlar
- 5) xodimning tug'ilgan kunidagi ishlar
- 6) ishlanmaydigan bayram kunlari

Javob:									
Ball:									

10.(Q-4 ball) "Nihol" korxonasi bo'sh ish o'rinlariga yangi xodimlarni ishga olishdi. Ish beruvchi ularga qulay mehnat sharoitini yaratib berdi. Shu korxonada ishlayotgan ayrim xodimlar mehnat qobiliyatini tiklash uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik ta'til olishdi. Ushbu vaziyatda qanday mehnatga oid huquqiy munosabatlar amalga oshirilgan?

- 1) ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini tuzish
- 2) mehnatga oid nizolar
- 3) xodimni malakasini oshirish
- 4) sinov muddatini belgilash

5) har yilgi mehnat ta'tili

Javob:									
Ball:									

13-savollar bazasi

1. (B-4 ball) Quyidagi ta'rif qaysi tushunchaga tegishli?

“— bu davlat organlari va fuqarolar yoki tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bo'lib, ular ma'muriy huquq normalari asosida tartibga solinadi”.

- 1) Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar
- 2) ma'muriy-huquqiy munosabatlar
- 3) fuqarolik-huquqiy munosabatlar
- 4) davlat boshqaruvi prinsiplari

Javob: _____

2. (B-4 ball) Quyidagilardan qaysi biri ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarga kirmaydi?

- 1) avtomashinani davlat ro'yxatidan o'tkazish
- 2) tadbirkorlikni davlat ro'yxatidan o'tkazish
- 3) merosni taqsimlash bo'yicha fuqarolar o'rtasidagi kelishuv
- 4) shaxslarning davlat organlariga murojaati

Javob: _____

3. (B-4 ball) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini yaratishdan (my.gov.uz) ko'zlangan asosiy maqsadni aniqlang:

- 1) davlat organlarida ichki hujjat aylanishini tezlashtirish
- 2) davlat xizmatlarini faqat shaxsan murojaat orqali olishni rag'batlantirish
- 3) davlat organlarida xodimlar sonini kamaytirish
- 4) davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanishlari

Javob: _____

4. (B-4 ball) Huquq-tartibotni saqlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish, huquqbuzarliklarning bartaraf etilishi sabablari va shart-sharoitlarini o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi nima deb ataladi?

- 1) huquqbuzarliklar profilaktikasi
- 2) kriminalistik ekspertiza
- 3) huquqiy tarbiya
- 4) huquqiy chora

Javob: _____

5. (B-4 ball) Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning asosiy vazifasini aniqlang:

- 1) fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini rag'batlantirish
- 2) shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash
- 3) huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarga qonunda belgilangan jazo choralari qo'llash
- 4) jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish

Javob: _____

6. (B-4 ball) O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo'lmagan taqdirda jarimani kim to'laydi?

- 1) davlat
- 2) ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar
- 3) ta'lim olayotgan muassasasi
- 4) mahalla jamg'armasi
- 5) homiylar

Javob: _____

7. (B-4 ball) Quyidagi jazolardan qaysi biri ma'muriy jazo turiga kirmaydi?

- 1) musodara qilish
- 2) haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish
- 3) haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish
- 4) axloq tuzatish ishlari

Javob: _____

8. (B-4 ball) Quyidagilardan qaysi biri ma'muriy jazoning maqsadiga kirmaydi?

- 1) shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash
- 2) huquqbuzarga qattiq jazolarni qo'llash orqali jazolash
- 3) yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish
- 4) qonun ustuvorligini ta'minlash

Javob: _____

9. (B-4 ball) Quyidagilardan qaysi biri aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar turiga kirmaydi?

- 1) yengil tan jarohati yetkazish
- 2) jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish
- 3) saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni saqlash
- 4) yaroqlilik muddati o'tgan iste'mol mahsulotlarini sotish

Javob: _____

10. (B-4 ball) Quyidagi huquqbuzarliklardan qaysi birida ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi?

- 1) tuhmat
- 2) haqorat qilish
- 3) yengil tan jarohati yetkazish
- 4) o'g'rilik

Javob: _____

14-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Tadbirkor markaziy ko'chaga ruxsatsiz reklama joylashtirdi.
2. Fuqaro maktab yaqinida ruxsatsiz savdo qildi.
3. Mansabdor shaxs tanishidan ishga joylashtirish uchun pul oldi.
4. Haydovchi qizil chiroqda to'xtamasdan o'tib ketdi.
5. Yangi moshina olgan shaxs markaziy ko'chada tezlikni oshirdi.
6. Avtomashina tezligini oshirib kelayotgan shaxs odamni urib yubordi va unga yordam bermasdan voqea joyidan qochib ketdi.

Javob:									
Ball:									

2. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. O'quvchi sinfdoshidan ruchka so'rab oldi-yu, qaytarib berish esidan chiqdi.
2. Tarbiyachi bolalarni jamoat joyida nazoratsiz qoldirdi.
3. Fuqaro bozorda shovqin chiqardi.
4. Talaba jamoat transportida tartibsiz harakat qildi.
5. Talaba darsga kechikib keldi.
6. Haydovchi yuk moshinasiga yukni belgilangan og'irlikdan ortiq yukladi.

Javob:									
Ball:									

3. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Haydovchi taqiqlangan yoritish moslamalaridan foydalandi.
2. Fuqaro shartnoma shartlarini bajarmadi.
3. Fuqaro jamoat transportida begonalarga qo'pollik qildi va ataylab tortishuv chiqardi.
4. Keksalar uchun ajratilgan o'rindiqlarda yosh fuqaro o'tirib, ularga joy bermadi.
5. Fuqaro spirtli ichimlikni jamoat joyida iste'mol qildi.
6. Quruvchi shaharsozlik normativlarini buzib qurilish ishlarini olib bordi.

Javob:									
Ball:									

4. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Haydovchi yo'l harakati qoidalarini buzib, piyodalar o'tish joyida to'xtamadi.
2. Tuman hokimi yer ajratib berish maqsadida fuqarodan pul oldi.
3. Fuqaro oziq-ovqat do'koni

hududida tartibsizlikni yaratdi. 4. 10-sinf o'quvchisi jamoat transportidan foydalanish qoidalariga amal qilmadi. 5. Talaba tungi vaqtda mahalla guzarida baland ovoz bilan qo'shiq kuyladi. 6. Fuqaro qo'shnisining uyiga tungi vaqtda bosqinchilik uyushtirdi.

Javob:									
Ball:									

5. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Talaba avtobusda harakatlanish uchun ataylab chipta olmadi. 2. Fuqaro ommaviy tadbirlarda belgilangan tartibni buzdi. 3. Fuqaro davlat organi xodimining qonuniy talabini bajarmadi. 4. O'quvchi ehtiyotsizlik qilib sinfdoshining daftarini yirtib qo'ydi. 5. 11-sinf o'quvchisi jamoat joyida mayda bezorilik qildi. 6. Xodim hamkasbining qimmatbaho telefonini o'g'irladi.

Javob:									
Ball:									

6. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Ona qish kunlarida chaqalog'ini axlatxonaga tashlab ketdi. Natijada bolaning salomatligi og'irlashdi. 2. Haydovchi avtomobil boshqarayotganda qo'l telefonidan foydalandi. 3. Mast holda avtomobil boshqargan shaxs ikkita insonning o'limiga sababchi bo'ldi. 4. Quruvchi hududiy hokimiyatdan ruxsat olmay, qurilish ishlarini boshladi. 5. Ayrim shaxslar axlatlarni belgilangan joyga tashlamadi. 6. Ko'p qavatli uyda istiqomat qiluvchi shaxs uyning yerto'la qismida ilon boqdi.

Javob:									
Ball:									

7. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko'rib chiqib, ulardan qaysilari **ma'muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Fuqaro belgilangan joyda emas, avtobus yo'lagida savdo qildi. 2. Haydovchi piyodalar yo'lagida to'xtab turdi. 3. Ota farzandlariga aliment to'lash maqsadida bankdan katta miqdorda kredit olib, kreditni to'lamasdan qochib ketdi. 4. Fuqaro maishiy chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlamadi. 5. Tug'ilgan kunini nishonlayotgan fuqaro tungi vaqtda baland ovozda qo'shiq eshitdi. 6. Mansabdor shaxs mansab vakolatlaridan foydalanib davlat mulkini o'zlashtirdi.

Javob:									
Ball:									

8. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko‘rib chiqib, ulardan qaysilari **ma’muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Mijoz restoranda ofitsiant bilan bahslashdi. 2. Fuqaro ishga shoshayotganligi uchun moshina tezligini oshirdi. 3. Ota farzandini ta’lim olishiga to‘sqinlik qilib maktabga yubormadi. 4. Do‘konda noqonuniy ravishda spirtli ichimlik sotildi. 5. Fuqaro jamoat joyiga axlat tashladi. 6. O‘quvchi sinfdoshiga tajovuz qilib unga o‘ta og‘ir tan jarohati yetkazdi.

Javob:									
Ball:									

9. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko‘rib chiqib, ulardan qaysilari **ma’muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1.Xodim ishga kechga qolib keldi. 2. Karantin vaqtida fuqaro ko‘chada niqobsiz harakatlandi. 3.Fuqaro ataylab jamoat tartibini buzdi. 4. Mansabdor shaxs ochiqdan ochiq talon-toroj qilib korxonada hisob raqamidagi pullarni o‘zlashtirdi. 5.Mahalla fuqarosi shovqin qoidalarini buzib, qo‘shnilarni bezovta qildi. 6. Shaxs hujjatlarsiz moshinada boshqardi.

Javob:									
Ball:									

10. (Q-4 ball) Quyidagi harakatlarni ko‘rib chiqib, ulardan qaysilari **ma’muriy** huquqbuzarlik ekanligini aniqlang:

1. Fuqaro shaxsiy avtomobilini boshqarayotganida qon bosimi oshdi. 2. Talaba universitet ichki tartibiga rioya qilmasdan haddan tashqari ochiq libos kiydi. 3. Fuqaro taqiqlangan joyda baliq ovladi. 4. Ishchilar xususiy korxonada mehnat shartnomasi tuzmasdan ishlashdi. 5. Haydovchi avtomobilining davlat raqamini olib tashlab harakatlandi. 6. Fuqaro qo‘shnisi bilan janjallashib qolib, uni haqorat qildi.

Javob:									
Ball:									

15-savollar bazasi

1. (Q-4 ball) Quyidagi tasniflardan jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlikka tegishlisini aniqlab, moslashtiring.

A) Jinoyat; B) Ma’muriy huquqbuzarlik.

1.Bunda jazolar nisbatan og‘irroq shaklda bo‘ladi, jazo asosan sud tomonidan belgilanadi.

2.O‘qishga kechga qolish yoki ishga kechikib kelish kabi huquqbuzarliklar sodir qilinadi.

3.Jazo nafaqat sud tomonidan balki ichki ishlar organlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan beriladi.

4.Asosan shartnoma shartlarini bajarmaslik, shaxslarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazish shaklida amalga oshiriladi.

Javob:

A	B
Ball:	

2.(Q-4 ball) Quyida jinoyat protsessi prinsiplariga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi prinsiplarga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Aybsizlik prezumpsiyasi; B) Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

1.Jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart.

2.Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shart.

3.Shaxsning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

4.Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Javob:

A	B
Ball:	

3.(Q-4 ball) Quyida jinoiy jazo turlariga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jazo turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Ozodlikdan mahrum qilish; B) Umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

1. Favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yish.

2. Sud tomonidan mahkumga nisbatan uy-joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlash.

3.Mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirish.

4. Yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanishi mumkin.

Javob:

A	B
Ball:	

4.(Q-4 ball) Quyida jinoiy jazo turlariga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jazo turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Axloq tuzatish ishlari; B) Majburiy jamoat ishlari.

1. Mahkumni haq to‘lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilish.
2. Bir oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi.
3. Bir yuz oltmish soatdan to‘rt yuz yigirma soatgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi.
4. Shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilish.

Javob:

A	B
Ball:	

5.(Q-4 ball) Quyida jinoyat turlariga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jinoyat turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar;

B) O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.

1. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish.
2. Davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog‘lig‘iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar.
3. O‘qotar qurolning, o‘q-dorilarning, o‘qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi.
4. Bu aholiga qo‘rquv solish yoki davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida portlash, otishma yoki boshqa zo‘ravonlik harakatlarini sodir etishdir.

Javob:

A	B
Ball:	

6.(Q-4 ball) Quyida jinoyatlarga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jinoyat turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) O'zgarar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar;

B) Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar.

1. O'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish.
2. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishda ancha miqdordagi ziyon yetkazish.
3. Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish, hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish.
4. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish yoki ishlab chiqarish.

Javob:

A	B
Ball:	

7.(Q-4 ball) Quyida jinoyatlarga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jinoyat turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar;

B) Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish jinoyati odatda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu jinoyat oqibatida davlat va jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar etkazish.
2. Mulkning jinoiy yo'l bilan topilganini bila turib, uni oldindan va'da qilmagan holda olish yoki o'tkazish.
3. Hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatida davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazish. Bu jinoyat davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan noqonuniy foydalanishida aks etadi.
4. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish.

Javob:

A	B
Ball:	

8.(Q-4 ball) Quyidagilardan jinoyat huquqi yoki jinoyat protsessual huquqiga aloqador bo'lgan javoblarni aniqlang.

A) Jinoyat huquqi; B) Jinoyat protsessual huquqi.

1. Jinoyat ishi qanday tartibda ko'rib chiqilishi, tergov va sud jarayonini belgilab beradi.

2. Bu davlat boshqaruvi faoliyatida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi;

3. Qanday qilmishlar jinoyat ekanligi hamda ularga qanday jazo berilishi kerakligini belgilaydi.

4. Bu jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularni sodir etayotgan shaxslarning xususiyatlari, jinoyatchilik darajasining o'sishi yoki kamayishi kabi holatlarni o'rganadi.

Javob:

A	B
Ball:	

9. (Q-4 ball) Quyida keltirilgan jinoyatlarni turkumiga qarab ajrating.

A) Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;

B) Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar.

1. Qiynash.

2. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish.

3. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish.

4. Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish.

5. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish.

6. Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish.

Javob:

A	B
Ball:	

10. (Q-4 ball) Quyida jinoiy jazo turlariga oid bir qator qoidalar keltirilgan. Ushbu qoidalarni qaysi jazo turiga tegishli ekaniga qarab ajrating.

A) Xizmat bo'yicha cheklash; B) Intizomiy qismga jo'natish.

1. Harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iborat.

2. Harbiy xizmatchining ish haqini o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilish.

3. Mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilish.

4. Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etish.

Javob:

A	B
Ball:	

16-savollar bazasi

1.(Q- 4 ball) Tungi vaqtda fuqaro A. ko'chada pichoq bilan tan jarohati yetkazish jinoyati sodir etilgan joy yaqinida ushlangan. Jabrlanuvchi tez yordam orqali shifoxonaga olib ketilgan. Guvohlardan biri fuqaro A.ni jinoyatchiga o'xshash shaxs sifatida ko'rsatgan. A.ga nisbatan shaxsiy tintuv o'tkazilganda cho'ntagidan qon dog'lari bor dastro'mol dalil sifatida olingan. Shuningdek, shaxsini tasdiqlovchi hujjat so'ralganda uyda ekanligini ma'lum qilgan.

Vaziyatni tahlil qilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq fuqaro A.ni ushlab turish qaysi asoslar bo'yicha qonuniy hisoblanishini aniqlang.

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar
- 3) aybini bo'yniga olib tergov organlariga o'z xohishi bilan kelsa
- 4) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa
- 5) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa

Javob:									
Ball:									

2.(Q-4 ball) Tumanlararo fuqarolik sudi sudyasi meros ishi bo'yicha da'vogar foydasiga hal qilib berishni va'da qildi. U da'vogardan 2 ming AQSH dollari olayotgan paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo'lga olindi. Pul daliliy ashyo sifatida olindi.

Vaziyatni tahlil qilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq sudyani ushlab turish qaysi asoslar bo'yicha qonuniy hisoblanishini aniqlang.

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa

2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar

3) aybini bo'yniga olib tergov organlariga o'z xohishi bilan kelsa

4) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa

5) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa

Javob:									
Ball:									

3.(Q-4 ball) 2025-yil 12-mart kuni soat 18:45 larda Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi "Baraka Market" do'konida o'g'rilik sodir etildi. Ushbu jinoyat bo'yicha 35 yoshli boshqa millatga mansub shaxs ichki ishlar bo'limiga olib kelindi. U surishtiruvchi tomonidan gumon qilinuvchi sifatida so'roq qilindi. Mazkur so'roq jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan so'roq o'tkazish tartibi ketma-ketligidagi xatoliklarni aniqlang.

1) gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanib, ishning unga ma'lum bo'lgan holatlari to'g'risida erkin so'zlab berishni taklif etdi

2) gumon qilinuvchining qaysi tilda ko'rsatuv bera olishini aniqlab, huquq va majburiyatlarini tushuntirdi

3) gumon qilinuvchiga ish holatlari yuzasidan erkin so'zlab berish imkoniyati berilib, so'ng unga qo'shimcha savollar berildi

4) gumon qilinuvchining shaxsi aniqlangandan so'ng, unga huquq va majburiyatlari tushuntirildi

5) gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirildi va ishning holatlari to'g'risida erkin so'zlab berish taklif etildi

Javob:									
Ball:									

4.(Q-4 ball) 2026-yil 6-yanvar kuni soat 17:45 larda ishdan qaytayotgan fuqaro T.ni noma'lum shaxs urib, do'pposlab voqea joyidan yashirindi. Bu holatni ko'rgan fuqaro B. darhol 102 qo'ng'iroq qilib jinoyat haqida xabar berdi. Fuqaro B. surishtiruvchi tomonidan guvoh sifatida so'roq qilindi.

Mazkur so'roq jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan so'roq o'tkazish tartibi ketma-ketligidagi to'g'ri javoblarni aniqlang.

1) guvohning shaxsi aniqlanib, unga huquq va majburiyatlari tushuntirildi

2) guvohga huquq va majburiyatlari tushuntirildi, so'ng unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida erkin so'zlab berish taklif etildi

3) guvohning qaysi tilda ko'rsatuv bera olishini aniqlab, huquq va majburiyatlari tushuntirildi

- 4) guvohning huquq va majburiyatlari tushuntirilgandan keyin shaxsi aniqlandi
 5) guvohning shaxsi aniqlangandan so'ng, unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida erkin so'zlab berish taklif etildi

Javob:									
Ball:									

5.(Q-4 ball) “Imkon Qurilish Boshqarmasi”da loyiha boshlig‘i B.M. ish jarayonida pudratchidan loyihani tezroq rasmiylashtirish evaziga pora olayotganida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushlandi.

Vaziyatni tahlil qiling. Tergovchining jinoyat tarkibini aniqlashdagi xatolarini aniqlang.

- 1) jinoyatning obyekti – tegishli tashkilotning obro‘yi, normal faoliyat yuritishi, fuqarolarning huquq va manfaati
- 2) subyektiv tomondan – o‘z-o‘ziga ishonish orqali sodir etilgan
- 3)obyektiv tomondan – mansabdor shaxsining o‘z mansab vakolatlaridan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishida ifodalanishi
- 4) jinoyatning subyekti –18 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 5) subyektiv tomondan – to‘g‘ri qasd bilan sodir etilgan
- 6) obyektiv tomondan – mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda biron-bir ishni bajarishi evaziga moddiy qimmatliklar olishida ifodalanishi

Javob:									
Ball:									

6.(Q-4 ball) 2025-yil 23-yanvar kuni Yashilobod tuman hokimligida yer masalalari bo‘yicha xususiy tadbirkor J. yangi kichik biznesini yuritish maqsadida yer ajratishni so‘rab murojaat qildi. Navbat uzoq va rasmiy jarayon sekin ketayotganligi sababli, J. ishni tezlashtirish maqsadida hokimlikning yer bo‘limi xodimi N.ning stoliga konvertida pul qo‘ydi. Shu zahoti tezkor xodimlar tomonidan J. qo‘lga olindi.

Vaziyatni tahlil qilib, jinoyat tarkibi to‘g‘ri berilgan javoblarni aniqlang.

- 1) ushbu jinoyatning subyekti – 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 2) obyekti – o‘zga shaxsning mulki yoki mulkiy huquqi
- 3) obyektiv tomondan – fuqaroning mansabdor shaxsga o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda muayyan harakatni shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi evaziga moddiy qimmatliklar berishda ifodalanishi
- 4) jinoyatning subyekti –18 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 5) subyektiv tomondan – egri qasd bilan sodir etilgan
- 6) obyektiv tomondan –mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda biron-bir ishni bajarishi evaziga moddiy qimmatliklar olishida ifodalanishi

Javob:									
Ball:									

7.(Q-4 ball) 2025-yil mart oyida fuqaro A. o‘z tanishi S.ga avtomashinasini vaqtincha foydalanish uchun topshirdi. S. avtomashinani faqat shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatishini va belgilangan muddatda qaytarib berishini va’da qildi. Biroq S. avtomashinani ruxsatsiz ravishda yo‘lovchi tashish faoliyatida ishlatdi va bir necha oy davomida daromad oldi. Natijada avtomashina texnik jihatdan yaroqsiz holga keldi va A.ga ancha miqdorda moddiy zarar yetdi.

Vaziyatni tahlil qilib, jinoyat tarkibi xato berilgan javoblarni aniqlang.

- 1) ushbu jinoyatning subyeksi – 18 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 2) obyeksi – o‘zga shaxsning mulki
- 3) subyektiv tomondan – beparvolik orqali sodir etilishi
- 4) jinoyatning subyeksi – 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 5) obyektiv tomondan – talon-toroj qilishning alomatlari bo‘lmagan holda, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan mulkdorga ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanishi
- 6) subyektiv tomondan – to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi

Javob:									
Ball:									

8.(Q- 4 ball) Davlat korxonasi mansabdor shaxsi xorijiy kompaniya bilan zamonaviy uskunalar sotib olish bo‘yicha bitim tuzdi. Bitimga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududiga ilgari foydalanilgan va ma’naviy eskirgan uskunalar olib kirildi. Mansabdor shaxs ushbu uskunalar zamon talablariga javob bermasligini bila turib, ijobiy ekspert xulosasini berdi. Natijada uskunalar samarasiz bo‘lib chiqdi va respublika manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yetkazildi.

Vaziyatni tahlil qilib, jinoyat tarkibi to‘g‘ri berilgan javoblarni aniqlang.

- 1) jinoyatning subyeksi – 18 yoshga to‘lgan shaxs
- 2) jinoyatning obyeksi – o‘zganing mulki
- 3) subyektiv tomondan – egri qasddan sodir etilgan
- 4) obyektiv tomondan – naf keltirmasligi ayon bo‘lgan bitimni tuzish oqibatida respublika manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yetishida ifodalanishi
- 5) obyeksi - O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari
- 6) obyektiv tomondan – aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan davlatga ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanishi

Javob:									
Ball:									

9.(Q-4 ball) Fuqaro A. moddiy manfaat evaziga xorijiy davlat hududida bo‘layotgan urushda qatnashish uchun ketdi. U nizolashayotgan davlatlarning fuqarosi emas, ularning qurolli kuchlari tarkibiga kirmaydi va hech qanday rasmiy harbiy topshiriqqa ega emas. Shunga qaramay, A. pul evaziga qurolli harakatlarda ishtirok etdi.

Vaziyatni tahlil qilib, to‘g‘ri javobni aniqlang.

- 1) ushbu jinoyatning subyekti – 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 2) subyektiv tomondan – o‘z-o‘ziga ishonish orqali sodir etilgan
- 3) obyektiv tomondan – shaxsning moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy manfaatni ko‘zlab, o‘zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to‘qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashishda ifodalanishi
- 4) jinoyatning subyekti – 18 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 5) obyektiv tomondan – xalqaro huquq bilan taqiqlangan urush olib borish vositalarini qo‘llash, shaharlar va aholi yashash joylarini behuda vayron qilish, mulkni talon-toroj qilishda ifodalanishi
- 6) obyekt - O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati

Javob:									
Ball:									

10.(Q-4 ball) Fuqaro G. pul ishlash maqsadida yosh qizlarga xorijda model bo‘lib ishlashni taklif qildi. Ularga professional fotosessiya va xorijiy moda agentligi bilan shartnomani ko‘rsatdi. Qizlardan hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ancha miqdorda pul olib go‘yib bo‘ldi.

Vaziyatga berilgan jinoyat tarkibidagi xatolikni aniqlang.

- 1) ushbu jinoyatning subyekti – 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 2) obyekt - shaxslarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinliklari
- 3) obyektiv tomondan – aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishda ifodalanishi
- 4) jinoyatning subyekti – 14 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs
- 5) subyektiv tomondan – to‘g‘ri qasddan sodir etilgan
- 6) obyekt - o‘zga shaxsning mulki yoki mulkiy huquqi

Javob:									
Ball:									

17-savollar bazasi

1. (B-4 ball) Tabiatni muhofaza qilishning asosiy maqsadlaridan birini toping:

- 1) shahar va qishloq hududlarini zamonaviy qurilish va infrastruktura loyihalari bilan rivojlantirish
- 2) tabiiy resurslardan iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida ularni faol va keng miqyosda o‘zlashtirish

- 3) moddiy, madaniy merosga oid tabiat obyektlarini asrab qolish
- 4) sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun tabiatdan maksimal darajada foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

Javob: _____

2. (B-4 ball) Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish qanday tartibda amalga oshiriladi?

- 1) davlat kadastr organlariga yozma ariza topshirish hamda barcha hujjatlarni qog'oz shaklida shaxsan taqdim etish orqali;
- 2) notarial idoralar tomonidan yerga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng avtomatik tarzda ro'yxatga olish orqali;
- 3) tuman (shahar) hokimligi qarori asosida yer uchastkasiga bo'lgan huquqni bevosita reyestrda kiritish orqali;
- 4) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga elektron shaklda murojaat qilish orqali.

Javob: _____

3. (B-4 ball) Biologik xilma-xillik nima?

- 1) bu yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon va o'simliklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni asrab-avaylash;
- 2) yer yuzida mavjud bo'lgan barcha tirik organizmlar: o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar va mikroorganizmlar hamda ularning yashash muhitlari va ekotizimlaridagi turli shakllar yig'indisi;
- 3) atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy normalar tizimi;
- 4) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda, ekotizimni yaxshilash choralari.

Javob: _____

4. (B-4 ball) Quyida berilganlardan qaysi norma O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasiga ko'ra fuqarolarning burchi hisoblanadi?

- 1) "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"
- 2) "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega"
- 3) "Fuqarolar shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishlari mumkin"
- 4) "Mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilinadi".

Javob: _____

5. (B-4 ball) Qaysi qonunga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va odamlarning mol-mulkiga, xalq xo‘jaligiga ziyon yetkazayotgan ekologiya jihatidan zararli faoliyatni to‘xtatish to‘g‘risida sudga murojaat qilishlari mumkin?

- 1) “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya to‘g‘risida”gi qonuni
- 2) “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun
- 3) “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun
- 4) “Biologik xilma-xillik to‘g‘risida”gi qonun

Javob: _____

6.(B-4 ball) Yer osti suvlaridan qanday foydalaniladi?

- 1) my.gov.uz portali orqali ruxsatnoma olib foydalaniladi
- 2) davlat organiga soliq to‘lash orqali foydalaniladi
- 3) tuman hokimini qarorini chiqartirib foydalaniladi
- 4) kadastr organi ruxsati bilan foydalaniladi

Javob: _____

7. (B-4 ball) Qaysi tashkilot davlatlarga ekologik siyosat yuritishda yordam beradi?

- 1) FAO
- 2) BIO
- 3) EKOSTAP
- 4) YUNEP

Javob: _____

8. (B-4 ball) Quyidagilardan qaysi biri O‘zbekiston hududidagi tabiiy ekotizimning asosiy turlariga kirmaydi.

- 1) suvli-botqoq joylar ekotizimlari
- 2) tropik yomg‘ir o‘rmonlari
- 3) cho‘l va yarimcho‘l
- 4) daryo va qirg‘oq bo‘yi

Javob: _____

9. (B-4 ball) Ekologik huquqiy javobgarlik turlarini toping:

- 1) ma‘muriy, fuqaroviy, siyosiy, jinoiy
- 2) jinoiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ma‘muriy
- 3) intizomiy, ma‘muriy, jinoiy, fuqaroviy
- 4) fuqaroviy, intizomiy, ma‘naviy, jinoiy

Javob: _____

10. (B-4 ball) Afrika qit‘asidagi eng ilg‘or ekologik siyosatga ega davlatni toping:

- 1) Keniya
- 2) Kongo

19-savollar bazasi

1. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Davlat suvereniteti” va “Xalq hokimiyatchiligi” boblaridan 5 ta moddani Konstitutsiyaga asoslab yozing.

Davlat suvereniteti	Xalq hokimiyatchiligi
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

2. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari” va “Shaxsiy huquq va erkinliklari”dan 5 tasini Konstitutsiya normalariga asoslab yozing.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari	Shaxsiy huquq va erkinliklari
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

--	--

3. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Fuqarolik jamiyati institutlari” va “Oila, bolalar va yoshlar” boblaridan 5 ta moddani Konstitutsiyaga asoslab yozing.

Fuqarolik jamiyati institutlari	Oila, bolalar va yoshlar
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

4. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisining vakolatlaridan 5 tasini Konstitutsiya normalariga asoslanib yozing.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birgalikdagi vakolatlari
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

5. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining mutloq vakolatlaridan 5 tasini Konstitutsiya normalariga asoslanib yozing.

Qonunchilik palatasi vakolatlari	Senati vakolatlari
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

6. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi vakolatlari va Xalq deputatlari Kengashlari va viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlaridan 5 tasini Konstitutsiya normalariga asoslanib yozing.

Vazirlar mahkamasi vakolatlari	Xalq deputatlari Kengashlari va viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

7. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyati to‘g‘risida Konstitutsiya normalariga asoslanib 5 ta ma’lumot yozing.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

8. (Q– 10 ball) O‘zbekiston Respublikasida “Saylov tizimi” va “Moliya, pul va bank tizimi” to‘g‘risida Konstitutsiya normalariga asoslanib 5 ta ma’lumot yozing.

Saylov tizimi	Moliya, pul va bank tizimi
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

9. (Q–10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish jarayoni va o‘zgartirish kiritish tartibi to‘g‘risida 5 ta ma’lumot yozing.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish jarayoni	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibi
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

10. (Q-10 ball) O‘zbekiston Respublikasi Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarini tashkil etish to‘g‘risida Konstitutsiya normalariga asoslanib 5 ta ma’lumot yozing.

O‘zbekiston Respublikasi Qonun chiqaruvchi hokimiyatini tashkil etish	O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyat tashkil etish
1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

